

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 166 (1492), 2025-yil 15-avgust, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O‘ZBEKISTON VA FRANSIYA O‘RTASIDAGI HAMKORLIK SIFAT JIHATIDAN YANGI BOSQICHGA KO‘TARILMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 14-avgust kuni mamlakatimizdagi diplomatik missiyasini yakunlayotgan Fransiya Respublikasining Favqulodda va muxtor elchisi Oreliya Bushezni qabul qildi.



Davlatimiz rahbari Fransiya elchisining samarali faoliyati hamda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga qo‘shgan shaxsiy hissasini alohida qayd etdi.

Bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi o‘zaro tashriflar O‘zbekiston — Fransiya hamkorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, uning kun tartibini aniq mazmun bilan boyitishga xizmat qilgani ta‘kidlandi.

Turli darajalarda tizimli muloqot va faol aloqalar yo‘lga qo‘yilgan. Savdo-iqtisodiy sohada sezilarli muvaffaqiyatlarga erishildi: keyingi yillarda tovar ayirboshlash 4 barobar ko‘paydi, Fransiyaning yetakchi kompaniya va tashkilotlari bilan umumiy qiymati 10 milliard dollardan ziyod loyihalar amalga oshirilmoqda.

Ta‘lim, sog‘liqni saqlash va madaniy-gumanitar almashinuv sohaslarida muhim dasturlar amalga oshirilmoqda. Luvr muzeyi va Arab dunyosi institutida ko‘rgazmalar katta muvaffaqiyat bilan o‘tdi.

Parij shahri yaqinida Beruniy haykali ochildi. Fransiya poytaxtidagi ko‘chaga Samarqand nomi berildi. Joriy yilda Toshkent shahrida O‘zbekiston — Fransiya universiteti o‘z ishini boshlaydi.

Uchrashuv yakunida O‘zbekiston Prezidenti Fransiya Respublikasining Favqulodda va muxtor elchisi Oreliya Bushezga mamlakatlarimiz o‘rtasida do‘stlik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga qo‘shgan katta hissasini uchun “Do‘stlik” ordenini topshirdi.

Elchi xonim uning diplomatik missiyasi yuksak baholangan hamda O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi keng ko‘lamli hamkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlayotgani uchun davlatimiz rahbariga samimiy minnatdorlik bildirdi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

F A R M O N I

O‘ZBEKISTONDAGI BIR GURUH FALASTINLIK FUQAROLARGA DAVLAT G‘AMXO‘RLIGI, MEHR-SHAFQAT TAMOYILLARI ASOSIDA KO‘MAK BERISH TIZIMINI YO‘LGA QO‘YISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Inson hayoti, sha‘ni va qadr-qimmatini ulug‘lash, muhtojlarga mehr bilan yondashish, ezigulik va adolat tamoyillariga sodiq qolish dinimiz, madaniyatimiz va an‘analrimizning ajralmas qismi hisoblanadi.

So‘nggi yillarda yurtimizda davlat va jamiyat o‘rtasida insonparvarlikka asoslangan munosabatlarni yanada mustahkamlash, ehtiyojmandlarga yordam ko‘rsatishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bu euzu yo‘nalishda yurtimiz har qanday davrlarda o‘z bag‘rikengligi, mehr-shafqati va insonparvarlik an‘analarini namoyon etib kelmoqda. Jumladan, O‘zbekistonga olib kelingan falastinlik fuqarolarga (keyingi o‘rinlarda — mehmonlarga) boshpana berilishi hamda ko‘mak ko‘rsatilishi

xalqimizning asrlar davomida shakllangan qadriyatlariga sodiqligi va davlatimizning haqiqiy insonparvarlik siyosati amalida ifoda bo‘layotganidan dalolat bermoqda.

Mehmonlarga adolat tamoyili asosida doimiy g‘amxo‘rlik va ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatishni ta‘minlaydigan mexanizmlarni joriy etish maqsadida qaror qilaman:

I. Mehmonlar ijtimoiylashuvini ta‘minlash

1. Mehmonlar uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida quyidagi ishlar bajarilgani ma‘lumot uchun qabul qilinadi:

a) mehmonlarni vaqtincha yashash obyektlariga joylashtirish, ularning birlamchi ehtiyojlari yuzasidan masalalar hal etildi;

b) mehmonlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va zarur dori-darmonlar bilan ta‘minlash choralari ko‘rildi;

v) mehmonlarning jamiyatga integratsiya qilinishi va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlanishini ta‘minlash maqsadida madaniy-ma‘rifiy uchrashuvlar va do‘stlik kechalari kabi tadbirlarni (shu jumladan, bolalar uchun) o‘z ichiga oluvchi maxsus dasturlar tashkil etildi.

II. Mehmonlarni jamiyatga integratsiya qilish ishlarini jadallashtirish

2. Falastinlik bemorlar va ularga hamrohlik qiluvchilarni O‘zbekiston Respublikasida yashashga moslashtirish jarayoniga ko‘maklashish bo‘yicha Respublika komissiyasi (keyingi o‘rinlarda —

Respublika komissiyasi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagilar Respublika komissiyasining asosiy faoliyat yo‘nalishlari etib belgilansin:

a) mehmonlarga yaratilgan imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish yuzasidan davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

b) mehmonlarni hududlar kesimida joylashtirish hamda mazkur chora-tadbirlar bilan bog‘liq tashkiliy masalalarni hal etish;

► Davomi 2-betda

MAISHIY CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev chiqindilarni qayta ishlashni kengaytirish chora-tadbirlari bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

Yurt obodligi va aholi salomatligida katta o‘rin tutadigan bu sohaga zamonaviy yondashuvlar olib kiritilmoqda. Oxirgi uch yilda barcha mabalaradan 2 trillion so‘mdan ziyod mablag‘ yo‘naltirildi. O‘tgan yili Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi tashkil etildi.

Chiqindi korxonalari uchun 1 ming 200 ta yangi texnika olib berildi. Mahallalarda chiqindi maydonchalari qurildi. To‘plash va tashib ketish yaxshilangani natijasida bu tarmoq ikkilamchi xomashyo manbayiga aylandi.

Avvallari davlat monopoliyasida bo‘lgan sohada tadbirkorlikka yo‘l ochilib, qulay biznes muhiti yaratildi. Jumladan, sanitar-tozalash hamda chiqindini qayta ishlash korxonalari uchun foyda solig‘i va ijtimoiy soliq stavkalari 1 foiz etib belgilandi.

Chetdan olib kelinadigan texnika va uskunalar import bojidan ozod qilindi. Natijada 200 ga yaqin sanitar-tozalash va 290 ta chiqindini qayta ishlash korxonalari ochildi.

Taqdimotda mutasaddilar sohadagi loyihalarining borishi va galdagi rejalar haqida axborot berdi. Yurtimizda yiliga 14 million tonna maishiy chiqindi hosil bo‘ladi. Lekin ularni qayta ishlash darajasi past. So‘nggi yillardagi loyihalar natijasida bu endi 5 foizga yetdi.

Chiqindini yoqish orqali energiya ishlab chiqarish loyihalari qo‘llab-quvvatlanmoqda. Xitoylik

investorlar 6 ta viloyatda shunday zavodlar quraypti. Davlat chiqindi utilitatsiyasi uchun ularga to‘lov qilish bilan birga hosil bo‘lgan energiyani sotib olish bo‘yicha ham majburiyat olaypti.

Yaqinda Toshkent shahrida tibbiyot chiqindisini yoqib, issiqlik oladigan ikkita korxona ishga tushirildi. Yana Samarqandda 2 ta, qolgan hududlarda bittadan shunday zavodlar qurilishi mo‘ljallangan.

Maishiy chiqindilarning to‘rtidan biri qog‘oz, plastik, rezina, shisha, to‘qimachilik qoldiqlariga to‘g‘ri keladi. Ularni qayta ishlash, 1 trillion so‘mlik mahsulot olish mumkinligi aytiladi. Bundan tashqari, yurtimizda qayta ishlamaydigan qurilish, kimyo, elektron, texnik va sanoat moylari bo‘yicha katta zaxira borligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Chiqindini tashib ketish xizmatlari aholini rozi qiladigan darajada bo‘lishi kerakligi ta‘kidlandi. Shu bois, mahallaga chiqindi texnikasining kelish vaqti va harakatini onlayn ko‘rish imkoniyatini yaratish vazifasi qo‘yildi.

Ijtimoiy muassasalar va mahallalarni chiqindi konteynerlari bilan to‘liq ta‘minlash bo‘yicha ikki yillik dastur ishlab chiqilishi belgilandi. Aholida ekologik madaniyatni bog‘cha va maktabdan boshlab shakllantirish muhimligi ta‘kidlandi.

O‘ZA

YORUG‘ ISTIQBOLNING TAFAKKUR TAMALI

Buyuk daryolar o‘z oqimini bir asrdan ikkinchisiga, bir davrdan boshqasiga olib o‘tadi. Goh sokin, goh to‘lqinlanib oqsa-da, maqsadi o‘zgarmaydi. Maqsad — manzilga yetish.

Millat tarixi ham shunga o‘xshaydi. U ham o‘z tarixiy o‘zanida, sinovlar va imkoniyatlar, yuksalishlar va izlanishlar orasida ilgari lab boradi.

Ma‘naviyat, ilm-fan va adabiyot olamida umri kechayotgan inson sifatida aytishim mumkinki, har bir avlod o‘z daryosining qaysidir nuqtasida turadi va uning kelajakdagi oqimi uchun mas‘ul bo‘ladi.

Bugun biz, yangi O‘zbekiston xalqi tarix daryosining nafaqat yangi bir qirg‘og‘ida, balki butunlay yangi o‘zan qazilayotgan, oqim tezligi va yo‘nalishi tubdan o‘zgarayotgan tarixiy bir nuqtada turibmiz. Bu jarayonning eng asosiy harakatlantiruvchi kuchi, yuragi va

aqli esa inson qadrini ulug‘lashga asoslangan, ta‘lim va ma‘rifatga qaratilgan yangicha davlat siyosatida o‘z ifodasini topmoqda.

Prezidentimizning mustaqilligimizning o‘ttiz to‘rt yilligini nishonlash to‘g‘risidagi qarorida aynan ta‘lim sohasidagi raqamlarga — maktabgacha ta‘lim qamrovining 27 foizdan 77 foizga, oliy ta‘limning esa 9 foizdan 42 foizga yetganiga alohida urg‘u berilishi shunchaki yutuqlar hisoboti emas, balki tanlagan yo‘limizning naqadar to‘g‘ri ekanini tasdiqlovchi, kelajak uchun dasturil-amal bo‘lgan strategik qarashlar majmuidir.

► Davomi 3-betda

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligiga

Vatanga muhabbat tuyg‘usi millat, elat tanlamaydi yoki tilga qaramaydi. Shu bois, u inson qalbining eng oliy ilhom manbayidir. Bu tuyg‘u odamning butun hayotini muayyan maqsadga yo‘naltiradi, amallariga ma‘no bag‘ishlaydi va qalbini euzu orzular bilan to‘ldiradi.

O‘ZBEKISTON – MENING VATANIM: MUHABBAT MILLAT TANLAMAYDI

Rus millati vakili sifatida taqdirimni bag‘rikeng va serqadriyat O‘zbekiston bilan bog‘lab, unda baxtini topgan insonman. Bu zamin nafaqat hayotimga mazmun bag‘ishladi, balki o‘zimni topish, inson sifatida kamolga yetish, xalq bilan bir tanu bir jon bo‘lib yashash baxtini ham taqdim etdi.

O‘zbekiston jahon sahnasida millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatning eng yorqin namunasi. Bu yurtida turli millat va elat vakillari o‘z urf-odatlarini, til va madaniyatini erkin rivojlantira oladi, o‘zini erkin va boshqalar bilan teng huquqli his etadi. Shu sababli bu zaminda yashash nafaqat baxt, balki ulug‘ mas‘uliyatdir. Chunki har birimiz milliy qadriyatlar va umuminsoniy fazilatlar uyg‘unligiga hissa qo‘shish bilan jamiyat ravnaqiga xizmat qilamiz.

► Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

O‘ZBEKISTONDAGI BIR GURUH FALASTINLIK FUQAROLARGA DAVLAT G‘AMXO‘RLIGI, MEHR-SHAFQAT TAMOYILLARI ASOSIDA KO‘MAK BERISH TIZIMINI YO‘LGA QO‘YISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

v) mehmonlarni jamiyatga integratsiya qilish bilan bog‘liq masalalarni muntazam ravishda muhokama qilish hamda bu boradagi mavjud to‘siqlarni bartaraf etish va muammolarni hal qilishga qaratilgan choralar ko‘rib borish;

g) mehmonlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qisqa va uzoq muddatlarga mo‘ljallangan takliflarni ishlab chiqish, joylarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini monitoring qilish.

III. Mehmonlar ehtiyojlarini aniqlash ishlarini tashkil qilish

4. Respublika komissiyasi (S. Umurzakov) **bir oy muddatda** mehmonlar ehtiyojlari va imkoniyatlarini baholash orqali ularning jamiyatga integratsiyasini ta‘minlash bo‘yicha har bir oila uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish rejalarini ishlab chiqib, tasdiqlasin.

5. Belgilansinki:
a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (keyingi o‘rinlarda — Ijtimoiy himoya milliy agentligi) Respublika komissiyasining ishchi organi hisoblanadi;

b) mehmonlar bilan mahalla darajasida bevosita ishlar “mahalla yetitilgi” va “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan tashkil etiladi;

v) mehmonlar uchun ishlab chiqilgan ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish rejalarini respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda ularning bo‘linmalari uchun majburiy hisoblanadi.

IV. Mehmonlarni ijtimoiy xizmat va yordam bilan qamrab olish

6. Ijtimoiy himoya milliy agentligi (M.Olloyorov):

a) Sog‘liqni saqlash vazirligi (A.Xudayarov) bilan birgalikda **ikkı oy muddatda** nogironlikka olib keluvchi kasalliklarga chalingan mehmonlarga qonunchilik hujjatlarida

belgilangan davolanish muddatidan qat‘i nazar **nogironlikni belgilash** choralarini ko‘rsin;

b) ikki hafta muddatda mehmonlarga zarur ish stajiga ega bo‘lmagan keksa fuqarolarga beriladigan nafaqa tayinlanishini ta‘minlasin.

7. Belgilansinki:

a) har bir mehnat yoshidagi mehmon (I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar bundan mustasno) uchun har oyda minimal iste‘mol xarajatlari miqdorida **yashash nafaqasi** joriy etiladi;

b) mehmonlarning har bir oilasiga yashash manzili bo‘yicha uy-joyning ijara xarajatlari qoplab beriladi;

v) mehmonlarga farzand tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa hamda dafn etish uchun nafaqa to‘lovi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun belgilangan miqdorda to‘lanadi;

g) mehmonlarning har bir oilasiga birlamchi zaruriy vositalar (oilada ishlatiladigan nooziq-ovqat mahsulotlari to‘plami) xaridi uchun bir martalik **ko‘tarma pul** qo‘shimcha ravishda to‘lab beriladi;

d) mehmonlarning oila a‘zolariga shaxsiy hamrohlik qilish va individual ko‘mak ko‘rsatish, shuningdek, ularning ehtiyojlari va individual talablarini ro‘yobga chiqarish maqsadida bittadan mahalladagi ijtimoiy xodim birlashtiriladi.

V. Mehmonlarning farzandlarini ta‘limga jalb qilish

8. Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi (E. Karimova):

a) mehmonlar yashash manzillari bo‘yicha ularning farzandlarini davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va maktablarga joylashtirish;

b) mehmonlarning har bir farzandi o‘quv va tarbiya jarayoniga moslashishi uchun maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va maktablarning direktorlari o‘rinbosarlarini birlashtirish;

v) Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda ta‘lim tashkilotlarida mehmonlar farzandlarining moslashuvi va har

tomonlama kamol topishi yuzasidan **doimiy monitoring** amalga oshirish choralarini ko‘rsin.

9. Belgilansinki:

a) mehmonlar davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalar ta‘minoti uchun o‘tanolar to‘lovidan **2028-yil 1-yanvariga** qadar ozod etiladi;

b) mehmonlarning farzandlari davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va maktablarga navbatga qo‘yilmagan holda, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari talabnomasi asosida joylashtiriladi;

v) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi “2025-yilda aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ—12-son qarori doirasida mehmonlarning farzandlarini davlat umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarida qo‘shimcha ta‘limga (kasb-hunar, axborot texnologiyalari, oliy ta‘lim tashkilotlariga tayyorlash yo‘nalishida) jalb qilish hamda ularni o‘qitish xarajatlarning 100 foizi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplab beriladi.

10. Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K.Sharipov) ikki oy muddatda mehmonlarning xorijiy davlatda umumiy o‘rta maxsus, kasb-hunar (professional), oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta‘limi olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarini tan olishni test sinovlarisiz va yig‘im undirgan holda amalga oshirsin.

VI. Mehmonlarning sog‘lig‘ini qo‘llab-quvvatlash

11. Sog‘liqni saqlash vazirligi (A.Xudayarov):

a) mehmonlarning yashash manzillari bo‘yicha oilaviy shifokor punktlari, oilaviy poliklinikalar va tuman (shahar) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarida hisobga qo‘yilishini ta‘minlasin;

b) mehmonlarga Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan tibbiy yordam ko‘rsatishda kambag‘al oilalarga mansub shaxslar toifasi qatorida yo‘llanma ajratib borsin.

VII. Mehmonlar bandligini ta‘minlash

12. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (B.Zaxidov) Ijtimoiy himoya milliy agentligi (M.Olloyorov) bilan birgalikda bir oy muddatda mehmonlarning xohishiga ko‘ra ularning bandligini ta‘minlash, zamonaviy kasb-hunarni egallashiga ko‘maklashish bo‘yicha Respublika komissiyasiga takliflar kiritisin.

13. Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Markaziy bank, AT “Xalq banki” va boshqa tijorat banklari tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan mehmonlarni oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash”, “Biznesga birinchi qadam” va “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturlari doirasida tadbirkorlikka jalb qilish choralarini ko‘rsin. Bunda dasturlar doirasida mehmonlar moliyaviy ko‘maklardan foydalanishi uchun buyurtmalar qabul qilish va ajratilgan mablag‘lardan foydalanishni monitoring qilish hokim yordamchilari va mahalla bankirlari tomonidan amalga oshiriladi.

VIII. “Mahalla yetitilgi”ning mehmonlar bilan ishlashini tashkil etish

14. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Yoshlar ishlari agentligi hamda Oila va xotin-qizlar ko‘mitasining 2-ilovaga muvofiq mehmonlarni hamjihatlikda mahallaning ma‘naviy muhitiga qo‘shish bo‘yicha “mahalla yetitilgi” va boshqa vakillarga qo‘shimcha vazifalarni yuklash to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

15. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi (K.Kuranbayev), Sog‘liqni saqlash vazirligi (A.Xudayarov), Yoshlar ishlari agentligi (A.Sa‘dullayev) hamda Oila va xotin-qizlar ko‘mitasi (Z.Maxkamova) bir oy muddatda “mahalla yetitilgi” va boshqa vakillarga qo‘shimcha yuklatilgan vazifalarga asosan ichki dasturlarni qabul qilsin va reja-jadvalga muvofiq zarur choralar ko‘rib borsin.

IX. Mehmonlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini moliyalashtirish va Farmon ijrosini tashkil etish

16. Iqtisodiyot va moliya vazirligining mehmonlarning masalalarini hal etish chora-tadbirlarini moliyalashtirish maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzurida yuridik shaxs maqomisiz maxsus jamg‘armani tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullansin.

17. Belgilansinki:

a) maxsus jamg‘arma quyidagi manbalar hisobidan shakllantiriladi:

(i) yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

(ii) xalqaro tashkilotlarning grantlari va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar;

(iii) maxsus jamg‘armaning vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larini tijorat banklariga depozitga qo‘yishdan olingan foiz tarzidagi daromad;

b) maxsus jamg‘arma mablag‘lari mehmonlarning quyidagi ehtiyojlariga yo‘naltiriladi:

(i) zarur shart-sharoitlar yaratish va tegishli xizmatlarni tashkil etish;

(ii) turli xarajatlarni qoplash va qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish;

(iii) moddiy yordam ko‘rsatish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tadbirlarini amalga oshirish.

18. Shunday tartib o‘natilsinki, unga muvofiq:

a) maxsus jamg‘arma mablag‘larini tasarruf etish Respublika komissiyasi qarori asosida amalga oshiriladi;

b) maxsus jamg‘arma xarajatlar yo‘nalishlariga o‘zgartirish kiritish Respublika

komissiyasi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi;

v) mehmonlarga jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan beg‘araz beriladigan ushbu Farmonning o‘z vaqtida va to‘liq ijro etilishini muntazam ravishda nazorat qilib borisin.

19. Bosh prokuratura (I. Adxamov) Ijtimoiy inspeksiya (X. Kutpidinov) bilan birgalikda ushbu Farmonning o‘z vaqtida va to‘liq ijro etilishini muntazam ravishda nazorat qilib borisin.

20. Ichki ishlar vazirligi (A. Tashpulatov) Davlat xavfsizlik xizmati (B. Kurbanov), Ijtimoiy himoya milliy agentligi (M. Olloyorov), Tashqi ishlar vazirligi (B. Saidov) va Adliya vazirligi (A. Tashkulov) bilan birgalikda bir oy muddatda mehmonlarga yashash guvohnomasi (ID-karta) rasmiylashtirilishini hamda ularning ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta‘minlasin.

21. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil qilishga mas‘ul va shaxsiy javobgar etib Bosh vazir o‘rinbosari J.A. Qo‘chqorov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ijtimoiy himoya bo‘yicha maslahatchisi — Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori M.P. Olloyorov belgilansin.

22. Farmon ijrosini nazorat qilish va ijro uchun mas‘ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining strategik rivojlanish bo‘yicha maslahatchisi S.U. Umurzakov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri,
2025-yil 14-avgust

SH. MIRZIYOYEV



Mariya SAFONOVA, Mirzacho‘l tumani nuroniylar jamoatchilik kengashi faoli

“

Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy shartlaridan biri millatlararo totuvlik va hamjihatlik muhitini asrab-avaylashdir. Bu yo‘lda mamlakatimizning barcha hududida milliy madaniyat markazlari, do‘stlik uylari va jamoatchilik kengashlari faoliyat yuritayotgani e‘tiborga loyiq.



Boshlanishi 1-betda

1947-yilda Qozog‘istonda tug‘ilganman. Bir necha o‘n yillar muqaddam oilam bilan O‘zbekistonga ko‘chib kelganimizdan beri bu yurt taqdirimning ajralmas qismiga aylandi. Bu yerda hayotimning turli bosqichlaridan o‘tdim, qiyinchilik va sinovlar bilan birga yuksalish va yutuqlar shohidi ham bo‘ldim. Turli mas‘uliyatli vazifalarga xizmat qilib, xalqimizning qalbi, orzu-umidlari va hayot tarzi bilan yaqindan tanishish baxtiga muvassar bo‘ldim.

Yillar davomida o‘rttirgan tajribam menga xalqqa xizmat qilishning chinakam mohiyatini o‘rgatdi: insonlarga faqat ishing bilan emas, balki yuragidagi samimiyat, adolat va bag‘rikenglik bilan ta’sir o‘tkazish mumkinligini anglatdi.

Bugun nafaqada bo‘lsam-da, hayotim faol va mazmunli davom etmoqda. Butun umrim davomida to‘plagan bilim va tajribamni yosh avlodga saboq sifatida yetkazish orqali jamiyatda birlik, hamjihatlik va bag‘rikenglikni mustahkamlashga intilaman. Chunki insonning eng katta boyligi uning ortda qoldirayotgan ma‘naviy merosi va kelajak avlod uchun qilgan ezgu ishidir.

Yoshligimdan jamiyatdagi hamjihatlik va birlamlik g‘oyalarga ishonib yashagan inson sifatida hayotiy tajribamda ham, bugungi siyosiy voqeiklarda ham bir haqiqat yaqqol namoyon bo‘ldi: har qanday davlatning barqarorligi millatlararo totuvlik va o‘zaro hurmatga asoslanadi. Shu ma’noda, Prezidentimizning ilgari surgan fikr va tashabbuslari jamiyatimizdagi bag‘rikenglik madaniyatini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Davlatimiz rahbarining



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



nutqlari va amaliy ishlarida “Bir millat — bir oila” tamoyili chuqur ma’no kasb etib, har bir fuqaro millati, tili yoki e‘tiqodidan qat‘i nazar, davlat himoyasida ekanini anglaydi kishi.

Bu yo‘nalishdagi islohotlar mustahkam qonunchilik va institutsional asoslarga tayanadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda inson huquqlari va millatlararo tenglikka oid moddalar yangicha talqin qilinishi, Millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik konsepsiyasi amaliyotga tatbiq etilishi, shuningdek, Millatlararo munosabatlari va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi faoliyati bu siyosatning muhim ustunlaridir. Bu tizim davlat boshqaruvida barcha millat va elat vakillarining teng huquqli ishtirokini ta‘minlab, ularning madaniy merosini asrab-avaylash va rivojlantirishga yo‘naltirilgani bilan ahamiyatli.

Prezidentimizning millatlararo hamjihatlik va do‘stlikni mustahkamlashga qaratilgan

siyosati mamlakatning eng olis hududlarida ham o‘zining amaliy samarasini bermiqda. Shuning yorqin misollaridan biri sifatida Mirzacho‘l tumanidagi turli millat va elat vakillarining o‘zaro hamjihat, tinch-osoysizhta hayotini ko‘rsatish mumkin. Bu yerda

ko‘plab millat vakillari bir oila a‘zolaridek yashayotgani, farzandlarini bir maktabda o‘qitayotgani, bir-birining marosimlarida qatnashib, qayg‘u va shodligida yelkadosh bo‘layotgani yurtimizdagi milliy birlikning amaldagi ko‘rinishidir.

Tumanimizda millatlararo totuvlik va o‘zaro hurmat tamoyillarini mustahkamlaydigan ijtimoiy va madaniy loyihalar muntazam amalga oshirib kelinmoqda. Masalan, mahalliy aholi tashabbusi va hokimlik ko‘magida tashkil etilgan “Do‘stlik bog‘i”da har bir millatning milliy taomi, musiqasi va an‘anasi namoyish etiladigan tadbirlar o‘tkazilib, yoshlar o‘rtasida madaniy almashinuvga keng yo‘l ochilmoqda. Shuningdek, qishloq va mahallalarda qo‘shma sport musobaqalari, hashar va xayr-ehson tadbirlari o‘tkazilishi orqali hamjihatlik ruhi mustahkamlanmoqda.

Mirzacho‘l tumanida kosmosni zabt etgan ilk inson — Yuriy Gagarin xotirasiga bag‘ishlangan me‘moriy yodgorlik o‘tirilgan. Bu yodgorlik nafaqat bir insonning tarixiy jasoratiga hurmat ifodasi, balki millatlar o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlikning ramzi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Chunki Gagarin nomi xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hamkorlik va umuminsoniy birlik timsoli sifatida qalblarda muhrilangan.

Tumandagi bunday ijtimoiy va madaniy tajribalar mamlakatimizda qaror topgan barqarorlik va milliy birlik siyosatining mahalliy darajada samarali amalga oshirilayotganini yaqqol namoyon etadi. Bu jarayon, ayniqsa, Prezidentimiz belgilagan “Tinchlik va totuvlik — taraqqiyot garovi” tamoyilining hayotiy qiymatini amalda

namoyon qiladi va uning yurtdoshlarimiz hayotidagi amaliy ahamiyatini oshiradi.

Har yili tuman markazida turli millat va elatlarning milliy bayramlari — Navro‘z, Rojdestvo, Sinko de Mayo kabi turli madaniy va dinlarga xos qutlug‘ sana va marosimlar keng nishonlanadi. Bu bayramlar aholi o‘rtasida do‘stlik va o‘zaro tushunish tuyg‘usini mustahkamlab, milliy qadriyatlar uyg‘unligiga xizmat qiladi.

Shuningdek, tumanda millatlararo hamjihatlik va o‘zaro hurmatni rivojlantirish maqsadida madaniy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazish izchil yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, har yili o‘tkaziladigan milliy taomlar festivali katta qiziqish uyg‘otadi. Unda qozoq millati vakillarining beshbarmog‘i, tojiklar tayyorlaydigan qurutob, slavyan oshxonasiga xos borshech va koreys kimchisi kabi milliy taomlar madaniy merosga qiziqish va hurmat tuyg‘usini oshiradi. Festival doirasida har bir millat o‘ziga xos milliy kiyimlar, musiqa va raqslar bilan tumanimizning madaniy manzarasini yanada rang-barang qiladi.

Shu bilan birga, Mirzacho‘lda yoshlar o‘rtasida bag‘rikenglik va hamjihatlikni targ‘ib etish maqsadida “Do‘stlik spartakiadasi” sport musobaqalari, turli millat va elat vakillarining musiqa kechalari, teatr tomoshalari hamda qo‘shiq festivallari o‘tkaziladi. Masalan, tuman madaniyat uyida tashkil etiladigan “Do‘stlik navolari” kechasida o‘zbek dutori, rus bayani, qozoq do‘mbirasi va tojik rubobining har sahnaida uyg‘un jaranglashi xalqlarimiz o‘rtasidagi samimiy yaqinlik va madaniy almashinuvning yorqin ifodasidir.

Bunday tadbirlar nafaqat madaniy

“

Muhabbat millat tanlamaydi, chunki u qalbning eng oliy tuyg‘usidir. Insonni uning tili yoki terisining rangi uchun emas, balki insoniy fazilatları, ezgu niyati va qalbidagi poklik uchun sevisht yangi O‘zbekiston fuqarosining haqiqiy ruhiy qiyofasiga aylangan.





YORUG' ISTIQBOLNING TAFAKKUR TAMALI

Shuhrat SIROJIDDINOV,
akademik

Boshlanishi 1-betda

XX asr boshida millat oydinlari, jadid bobolarimiz “Najot — ma’rifatda, najot — maktabda!” deya xitob qilgan edi. Ular millatni asiy qoloqlik va jaholatdan olib chiqishning yagona yo’li xalqni savodli qilish, dunyoviy ilmlarni o’rgatish ekanini chuqur anglagan. Fitrat, Behbudiy, Cho’lpon kabi ulug’larimiz bu yo’lda hatto o’z jonini ham qurbon qildi. Afsuski, tarixning achchiq saboqlari, mustabid tuzumning siyosati bu ergu orzularning to’liq ro’yobga chiqishiga yo’l qo’y-madi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida ham iqtisodiy qiyinchiliklar, o’tish davri murakkabliklari ta’limni birinchi darajali vazifa sifatida ko’rishga hamisha ham imkon beravergani yo’q. Natijada jamiyatda muayyan ma’noda tafakkur turg’unligi, ma’naviyat o’rniga moddiyatga intilish kuchaydi.

Inson kapitali —
milliy g’oya o’zagi

Bugungi islohotlarning tarixiy ahamiyati shundaki, jadidlarning o’sha armonlarini, orzu-umidlarini yangi bosqichda, yangi kuch va imkoniyatlar bilan hayotga tatbiq etmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan Uchinchi Renessans g’oyasi o’sha birinchi milliy uyg’onish davri g’oyalarining mantiqiy davomi, uning zamonaviy, globallashtiruv asriga mos shaklda qayta tug’ilishidir.

Uchinchi Renessans poydevorini qurish haqida so’z yuritir ekanimiz, buning zamiridagi ulkan tarixiy va sivilizatsion ma’noni chuqurroq anglashimiz kerak. Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarida Movarounnahr zaminidan yetishib chiqqan buyuk allomalarimiz o’z-o’zidan paydo bo’lib



qolmagan. O’sha davrlarda hukmdorlarning ilm ahliga homiyligi, madrasalar ko’paygani, kutubxonalarning boyligi, tarjima maktablari faoliyati va eng asosiysi, jamiyatda ilmga, ziyoga ruksans ehtiroam mavjud edi. Ya’ni o’sha Renessanslarning moddiy va ma’naviy zaminini yaratilgandi.

Xuddi o’sha davrlardagi kabi bugun ta’lim sohasiga ulkan e’tibor va sarf-ma’lumot aslida ana shu tarixiy tajribani zamonaviy bosqichda qayta takrorlash, Uchinchi Renessans uchun zarur intellektual va ijtimoiy muhitni shakllantirishga qaratilgan ulug’vor harakatdir. Bu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi esa mamlakatimizdagi insonparvarlik siyosati natijasida inson kapitali tushunchasining qayta kashf etilishi hisoblanadi.

Bu atama endilikda sof iqtisodiy kategoriya emas, balki milliy g’oyaning o’ziga aylanmoqda. Ya’ni inson kapitali faqatgina mehnat bozori uchun malakali kadr emas, balki buksak ma’naviyatli, vatanparvar, o’z tarixini biladigan, ajdodlariga munosib, ayni paytda dunyo bilan ochiq muloqotga kirisha oladigan, innovatsion fikrlaydigan komil insondir. Demak, bugungi ta’lim islohotlarining bosh maqsadi shunchaki

savodli odamlarni emas, balki yurt taqdiri uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga ola biladigan, mustaqil fikrli, shijoatli va ma’rifatli shaxslarni tarbiyalashdan iborat.

Millat binosining poydevori

Bu ulug’vor maqsadga erishishning ilk va eng muhim bosqichi maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilishdan boshlangani o’ziga xos ramziy ma’noga ega. 77 foiz qamrov shunchaki statistika emas, bu yangi O’zbekistonning kelajagiga tikilgan eng ishonchli investitsiya. Zamonaviy neyrofanoat ilm-fani ham inson miyasi rivojlanishi, bilish qobiliyatlari va xarakteri poydevori aynan 3 yoshdan 7 yoshgacha bo’lgan davrda qo’yilishini isbotlagan. Bu davr inson hayotidagi “oltin davr” bo’lib, undagi yo’qotishlarni keyinchalik to’ldirish deyarli imkonsiz.

Yillar davomida bu soha e’tibordan chetda qolgani oqibatida biz nafaqat minglab bolalarning sifatli ta’lim olish imkoniyati, balki jamiyatning intellektual salohiyatida ham ulkan bo’shliqni vujudga keltirgan edik. Shahar va qishloq bolalari o’rtasidagi boshlang’ich imkoniyatlar tengsizligi ijtimoiy adolat tamoyillariga zid edi. Davlat-xususiy sheriklik asosida yangi bog’chalar qurilayotgani, ulardagi ta’lim-tarbiya dasturlari ilg’or xorijiy metodikalar asosida yangilanayotgani, tarbiyachilar malakasi oshirilayotgani ertaga o’z mevasini berishi muqarrar.

Bog’chada ilk hisob-kitobni o’rgangan, she’r yodlagan, jamoada o’zini tutishni bilgan bola maktabga har tomonlama tayyor bo’lib boradi. Bu esa butun ta’lim tizimi sifatini oshirish uchun mustahkam zamin yaratadi. Bu, obrazli aytganda, millat binosi poydevorini betonlash bilan barobar.

“Qalb muhandislari” maqomi
yuksalmoqda

Islohotlar haqida gapirganda, biz ko’pincha raqamlar, foizlar, qurilgan binolar haqida so’zlaymiz. Lekin butun ta’lim tizimining yuragi, uning joni o’qituvchi, muallim, ustozdir. Agar ustozning qalbidagi o’t bo’lmasa, o’quvchining ko’zida nur aks etmaydi. Agar muallimning bilimi sayoz bo’lsa, shogirdning tafakkuri kengaymaydi.

So’nggi yillarda o’qituvchining jamiyatdagi obro’sini tiklash, uni ortiqcha qog’ozbozlikdan, majburiy mehnatning barcha turlaridan ozod qilish, oyilgini



muntazam oshirib borish borasidagi ishlar tarixiy adolatning tiklanishi bo’ldi, desam mubolag’a bo’lmas. Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti kabi tizim va tuzilmalar o’qituvchilarning doimiy ravishda o’z ustida ishlashi, malakasini oshirib borishi uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Bu endi eskicha, bir marta malaka oshirib, yillar davomida eski bilimlar bilan yurish amaliyotiga chek qo’y-moqda.

Bugungi o’qituvchidan har kuni o’qish, har kuni izlanish, dunyodagi eng so’nggi pedagogik yangiliklardan xabardor bo’lish talab etilmoqda. Bu, albatta, mashaqqatli, biroq sharaflil yo’ldir. O’qituvchining ishidan, turmushidan ko’ngli to’q bo’lsa, jamiyat obod bo’ladi. Uning ertangi kunga ishonchi mustahkam bo’lsagina, sinfxonaga shijoat bilan yonib kiradi va butun borlig’ini farzandlarimiz tarbiyasiga bag’ishlaydi.

Yangi attestatsiya tizimi joriy etilishi, malakali, o’z ustida ishlaydigan o’qituvchilarga yuqoriroq maosh to’lanishi sohada sog’lom raqobat muhitini yaratadi. Endi o’qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki doimiy izlanishdagi, yangiliklarni o’rganuvchi va hayotga tatbiq etuvchi shaxsga aylanmoq’i lozim. Shoir aytganidek, ular “qalb



Maqsadga erishishning ilk va eng muhim bosqichi maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilishdan boshlangani o’ziga xos ramziy ma’noga ega. 77 foiz qamrov shunchaki statistika emas, bu yangi O’zbekistonning kelajagiga tikilgan eng ishonchli investitsiya. Zamonaviy neyrofanoat ilm-fani ham inson miyasi rivojlanishi, bilish qobiliyatlari va xarakteri poydevori aynan 3 yoshdan 7 yoshgacha bo’lgan davrda qo’yilishini isbotlagan.

muhandislari”dir. Uchinchi Renessansning me’morlari ham aynan ana shu zahmatkash va fidoyi o’qituvchilar hisoblanadi. Ularning mehnatini qadrlash millat kelajagini qadrlash demakdir.

Intellektual mayoq

Ta’lim tizimining keyingi muhim bo’g’ini — umumta’lim maktablarida ham jiddiy sifat o’zgarishlari ko’zga tashlanmoqda. Ayniqsa, iqtidorli bolalar uchun alohida ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan yangicha yondashuv diqqatga sazovor. Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi — bularning barchasi yurtimizda iste’dodlarni izlab topish va parvarishlashning mukammal tizimi yaratilayotganidan dalolat beradi. Bu maktablar shunchaki elitar o’quv muassasalari emas, butun tizim uchun “intellektual mayoq” vazifasini o’tamoqda.

Prezident maktablari eng ilg’or xalqaro ta’lim standartlarini, STEAM yondashuvini joriy etish bo’yicha lokomotivga aylangan bo’lsa, ulug’larimiz nomi bilan atalgan ijod maktablari gumanitar tafakkurni, milliy ruh va adabiyotni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu maktablar paydo bo’lishi — ma’naviyat va ma’rifat bir-biridan ayrilmas ekanining yaqqol isboti. Chunki faqatgina texnik bilimlarga ega, lekin o’z tarixini, adabiyotini bilmaydigan avlod, mubolag’a bo’lsa ham, manqurtga aylanib qolishi mumkin.

Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug’bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablar esa aniq va tabiiy fanlar bo’yicha bo’lajak olimlarni, muhandislarni, innovatorlarni tayyorlaydi. Bu tizim bir paytlar sobiq sovet davridagi bir xil qolipdagi maktab modelidan butunlay voz kechib, har bir bolaning individual qobiliyatini ro’yobga chiqarishga yo’naltirilgan bilan yanada ahamiyatli. Bu jarayon pirovard natijada butun maktab tizimiga o’z ta’sirini o’tkazayotir. Ilgari faqat poytaxtda yoki yirik shaharlarda kuchli hisoblangan maktablar konsepsiyasi o’rniga endi har bir tumanda, hatto chekka qishloqlarda ham shunday tayanch maktablar — intellektual markazlar paydo bo’lmoqda. Bu esa ta’limdagi tenglikni nafaqat miqdor, balki sifat jihatidan ham ta’minlashga xizmat qiladi.

Islohotlar muvaffaqiyati faqat davlat idoralari yoki ta’lim muassasalari sa’y-harakatiga bog’liq emas. Bu umummilliy vazifa bo’lib, unda oila — mahalla — maktab hamkorligi hal qiluvchi o’rin tutadi. Ma’rifat ostonadan boshlanadi. Oilada kitobga muhabbat, bilimga intilish muhiti bo’lmas ekan, maktabning o’zi mo’jiza yaratma olmaydi. Farzandining tarbiyasiga, dars tayyorlashiga befarq bo’lmagan ota-ona, o’z hududidagi yoshlarning bo’sh vaqtini mazmunli o’tkazish haqida qayg’uradigan mahalla faollari — mana shular ta’lim islohotlarining chinakam tayanchi va ko’makchisi hisoblanadi.

Sohadagi oqilona siyosat mazmun-mohiyati ham jamiyat va davlatning shu yo’ldagi hamjihatligini ta’minlashga qaratilgan. Bugungi kunda ota-

onalarning ta’lim jarayonidagi ishtirokini oshirish, mahallalarda ziyo maskanlari, kutubxonalar tashkil etish kabi tashabbuslar ana shu hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Axir yosh avlod tarbiyasi uchun hammamiz birdek mas’ulmiz. Bu mas’uliyat hissi har bir oilaga, har bir mahallaga kirib borganadigana biz ko’zlagan ulkan maqsadlarga erisha olamiz.

Yana bir muhim jihat ta’lim mazmunidagi tub burilishdir. Biz uzoq yillar davomida axborotni yod olishga asoslangan ta’lim modelidan jabr ko’rib keldik. O’quvchining xotirasi to’ldirildi, lekin tafakkuri o’shtirilmadi. Bugungi islohotlarning markazida esa tanqidiy va kreativ fikrlashni, muammolarga mustaqil yechim topishni, axborot oqimidan keraklisini saralab olishni o’rgatish vazifasi turibdi.

Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlarning ilg’or tajribalari o’rganilib, milliy o’quv dasturlariga tatbiq etilayotgani bejiz emas. Endigi vazifa o’quvchini tayyor javoblar bilan ta’minlash emas, balki uni to’g’ri savollar qo’yishga o’rgatishdir. Bu, o’z navbatida, o’qitish metodikasini ham butunlay o’zgartirishni taqozo etadi. O’qituvchi endi minbarda turuvchi notiq emas, balki o’quvchilar bilan birga izlanuvchi, ularning ijodiy salohiyatini ochishga ko’maklashuvchi murabbiyga aylanishi kerak. Bu — zamon talabi. Bu yo’lda o’quvchilarni turli loyihalariga, bahs-munozaralarga, amaliy



mashg’ulotlarga jalb qilish, tashabbuskorligini rag’batlantirish muhim ahamiyatga ega. Tafakkur erkinligi bo’lgan joydagina kashfiyotlar tug’iladi.

Albatta, bunday keng ko’lamli o’zgarishlar bir kechada yoki bir yilda yuz bermaydi. Bu tafakkur erkinligi bo’lgan joydagina kashfiyotlar tug’iladi.

Albatta, bunday keng ko’lamli o’zgarishlar bir kechada yoki bir yilda yuz bermaydi. Bu tafakkur erkinligi bo’lgan joydagina kashfiyotlar tug’iladi.

etish kabi vazifalar oldimizda turgan jiddiy chaqiriqlardan.

Lekin eng muhimi, to’g’ri yo’l tanlandi, aniq maqsadlar qo’yildi va bu yo’lda siyosiy iroda namoyon etilmoqda. Ta’limga yo’naltirilayotgan mablag’ yildan yilga o’rtib borayotgani, soha xodimlarining moddiy va ma’naviy qo’llab-quvvatlanayotgani ana shu irodaning amaliy ifodasi. Bu jarayonda butun jamiyat, har bir fuqaroning faol ishtiroki, islohotlarga daxldorlik hissi bilan yashashi muhim. Biz yutuqlardan eyforiyaga berilmasdan, mavjud muammolarni ochiq tan olib, ularni bartaraf etish yo’lida birgalikda harakat qilishimiz lozim. Zero, Uchinchi Renessans poydevori butun millatning yakdil sa’y-harakati bilangina mustahkam bo’ladi.

Ma’rifatning eng oliy mevasi ilm-fan hamda uning amaliyotga, iqtisodiyotga tatbiq etilishidir. Agar ta’limdan olingan bilimlar real hayotda o’z aksini topmasa, ular shunchaki xotira yukiga aylanib qoladi.

Oliy ta’limdagi inqilobiy
o’zgarishlar

Shu nuqtayi nazardan, so’nggi yillarda ta’lim islohotlari bilan parallel ravishda ilm-fanni rivojlantirish va innovatsion faoliyatini qo’llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilayotgani juda muhim. Zarur tuzilmalar tashkil etilishi, ilmiy loyihalarni moliyalashtirish hajmi bir necha barobar oshirilgani, texnoparklar, startap loyihalar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar — bularning barchasi ta’lim zanjirining mantiqiy davomidir.

“Bir million dasturchi” kabi yirik loyihalar yoshlarni eng zamonaviy va talabgir kasblarga yo’naltirayotgan bo’lsa, sun’iy intellekt, biotexnologiyalar, qayta tiklanuvchi energetika kabi sohalarga berilayotgan e’tibor mamlakatimizning xomashyoga asoslangan iqtisodiyotdan bilim va texnologiyalarga



asoslangan iqtisodiyotga o’tish jarayonini tezlashtirmoqda. Endi universitetlar nafaqat diplom beradigan dargoh, balki ilmiy tadqiqotlar o’tkazadigan, yangi texnologiyalar yaratadigan va ishlab chiqarish korxonalari bilan uzviy hamkorlik qiladigan ilmiy markazlarga aylanishi shart. Bu jarayon allaqachon boshlangan va uning samaralarini biz yaqin yillarda yanada yaqqolroq ko’ra boshlaymiz.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari huzuridagi ilmiy laboratoriyalar modernizatsiya qilinayotgani, xalqaro ilmiy bazalarga ulanayotgani, yosh olimlarning

nufuzli xorijiy ilmiy markazlarga stajirovkaga yuborilayotgani bu yo’ldagi amaliy qadamlar sanaladi.

Va nihoyat islohotlarning gultoji — oliy ta’lim sohasidagi inqilobiy o’zgarishlar. Qamrovning to’rt yarim barobar oshib, 42 foizga yetishi yangi O’zbekistonning bilimga asoslangan iqtisodiyotga va ochiq fuqarolik jamiyatiga o’tish borasidagi eng dadil qadamlaridan bo’ldi. O’nlab yillar davomida oliy ta’lim tor doiradagi “tanlanganlar” uchun mo’ljallangan yopiq tizim bo’lib kelgan edi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy tabaqalanishni kuchaytirar, minglab iqtidorli yoshlarning o’z salohiyatini ro’yobga chiqarishiga to’siq bo’lardi.

Qabul kvotalari keskin oshirilishi, yangi universitetlar, nufuzli xorijiy oliygothlar filiallari ochilishi, universitetlarga akademik va moliyaviy mustaqillik berilishi oliy ta’lim landschaftini butunlay o’zgartirib yubordi.

Xorijiy universitetlarning kirib kelishi mahalliy oliygothlar uchun sog’lom raqobat muhitini yaratdi, ularni o’z dasturlarini qayta ko’rib chiqishga, sifat ustida ishlashga majbur qilmoqda. Berilgan akademik mustaqillik esa ularga mehnat bozori talablariga tezkorlik bilan moslashish, yangi va kerakli yo’nalishtirish olish imkonini beradi.

Bugungi kunda universitetlar shunchaki ta’lim berish bilan cheklanmay, jamiyatning “aql markazlari”ga aylanishi shart bo’lmoqda. Ular nafaqat kadr tayyorlashi, balki hududlarni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, ijtimoiy muammolarga ilmiy yechimlar taklif qilishi, aholining ilmiy savodxonligini oshirishda faol ishtirok etishi kerak. Bu, o’z navbatida, professor-o’qituvchilar tarkibidan ham yangicha yondashuvni, ya’ni tor ixtisoslik doirasidan chiqib, kengroq, davlat va jamiyat miqyosida fikrlashni taqozo etadi. Bu o’zgarishlar bir necha muhim vazifani bir vaqtning o’zida hal qilmoqda.

Birinchidan, hududlarning malakali kadrlarga ehtiyojini qondirmoqda. Ikkinchidan, yoshlar orasida ishsizlikni kamaytirishga va ularning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Uchinchidan, mamlakatda sog’lom raqobatga asoslangan intellektual muhitni shakllantirmoqda. To’rtinchidan va eng muhimi, jamiyatda ziyolilar qatlamini kengaytirmoqda. Ziyolilari ko’p millat esa hech qachon adashmaydi, o’z yo’lidan og’ishmaydi.

Xulosa qilib aytganda, bugun biz buyuk o’zgarishlarning nafaqat shohidi, balki ishtirokchisimiz. Bugun ekanayotgan ma’rifat urug’lari ertaga, 10-15 yildan so’ng Uchinchi Renessans mevalari bo’lib unib chiqishiga ishonchim komil.

Istiqbolimizning o’ttiz to’rt yilligi arafasida turib, men mamlakatimizning eng katta boyligi yer osti boyliklari emas, balki ana shu — yangicha fikrlayotgan, ko’zlari yonib turgan, ilmga chanqoq avlod ekaniga yana bir bor amin bo’lyapman. Bu avlod dunyodagi tengdoshlari bilan har qanday sohada bemalol raqobat qila oladigan, ayni paytda o’zligini, milliy qiyoqasini, ona tilini va buyuk tarixini unutmaydigan avlod bo’lib kamol topadi. Chunki bugungi islohotlarning tub mohiyatida Sharq donishmandligi va G’arb texnologiyalarining sintezi, milliylik va zamonaviylikning uyg’unligi yotibdi.

Bu esa bizni nafaqat iqtisodiy jihatdan qudratli, balki ma’naviy jihatdan ham butun bir davlatga aylantiradi. Bu yangi O’zbekiston tanlagan va uni buyuk kelajak sari yetaklaydigan eng to’g’ri, eng mashaqqatli, eng sharaflil yo’ldir.

va yig'irlarni o'z ichiga oladi. Aytaylik, bir dona mobil telefonning narxi 1 million so'm bo'lsa, shundan taxminan 400 ming so'm turli soliq va yig'irlarga to'g'ri keladi. Endi tasavvur qiling: agar bir tadbirkor ushbu soliqlarni to'lamay, telefonni 600 ming so'mga sotsa, u raqobatda ustunlikka ega bo'ladi. Ammo barcha qonunlarga amal qilib, soliq to'layotgan tadbirkor xaridor yo'qotadi, zarar ko'radi. Natijada adolatsiz tizim shakllanadi — qonunga amal qilgan jazolanadi, qonunni buzgan esa mukofotlanadi.

Ijtimoiy adolat nuqtayi nazaridan yana bir muhim jihat jamiyatda har bir fuqaroning teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishi zarurligidir. Soliq to'layotgan va to'lamaydigan shaxslar davlat tomonidan yaratilayotgan ijtimoiy xizmatlardan bir xil foydalanadi. Maktab, shifoxona, yo'llar, xavfsizlik, kommunal infratuzilma — bularning barchasi asosan soliqlar hisobiga moliyalashtiriladi. Agar kimdir soliq to'lamay turib, shunchaki bu xizmatlardan foydalanayotgan bo'lsa, demak, boshqa bir fuqaroning mehnati va burchi orqali yashayapti. Bu esa jamiyatda "birov to'lab, boshqa birov foydalanadi" degan adolatsiz tizimni quvvatlaydi.

Tenglikdan chetda qolgan soliq yuklari

Davlat institutlari jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Qonun ustuvorligi, sud-huquq tizimining adolati ishlashi, barcha fuqarolar va tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratilishi barqaror iqtisodiy muhit poydevoridir. Xususan, davlat xizmatlari raqamlashtirilishi inson omilini kamaytiradi, tizimli shaffoflikni ta'minlaydi va korruptsiyaning oldini olishga xizmat qiladi. Chunki korruptsiya va byurokratiya yashirin iqtisodiyotning asosiy oziqlantiruvchi manbai sanaladi.

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda mehnat bozorini tartibga solish, pul o'tkazmalari tizimini samarali tashkil etish, elektron hisob-kitobni joriy qilish, fuqarolar va tadbirkorlar uchun qulay va adolatli soliq muhitini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, barcha jarayonlarni avtomatlashtirish, soliq hisobotlarini elektronlashtirish shaffoflik va nazoratni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yashirin iqtisodiyotga qarshi samarali kurashish uchun yagona, aniq va barqaror davlat strategiyasi talab etiladi. Bu strategiya soliq qonunchiligini soddalashtirish va barcha uchun tushunarli qilishni nazarda tutadi. Soliqdan qochish va yashirin daromadlarni aniqlash bo'yicha samarali mexanizmlar joriy etilishi, qonunbuzarliklarga nisbatan qat'iy jazolar belgilanishi va ularning so'zsiz ijrosi ta'minlanishi lozim. Shu bilan birga, davlat va jamiyat o'rtasida ishonch muhitini shakllantirish, soliq to'lovchilarga maslahatlar berish, ularning muammolarini tezkor hal qilish uchun mahalliy hokimiyatlar faoliyatini takomillashtirish zarur.

Soliq madaniyatini oshirish maqsadida ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy loyihalar orqali keng targ'ibot ishlari talab etiladi. Qonuniy tadbirkorlikni rag'batlantirish, ma'muriy to'siqlarni qisqartirish, yangi ish o'rinlari yaratish va kichik hamda o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash orqali soliq bazasini kengaytirish mumkin. Shuningdek, xalqaro tajribani o'rganish va raqamli identifikatsiya hamda avtomatlashtirilgan nazorat tizimlarini joriy etish kabi zamonaviy yondashuvlar ushbu jarayonda katta samara beradi.

Eng muhimi, har birimiz yashirin iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi, balki jamiyatda adolat, tenglik va ishonch muhitini yo'qqa chiqarishini tushunishimiz kerak.

Yashirin iqtisodiyot qisqarishi orqali davlat budjeti daromadlari oshadi, ijtimoiy xizmatlar sifati va qamrovi yaxshilanadi, korruptsiya va qonunbuzarliklar kamayadi hamda adolatli raqobat muhiti shakllanadi. Natijada soliq tizimiga ishonch organi sari yangi investitsiyalar jalb etiladi, iqtisodiy o'sish sur'atlari tezlashadi va jamiyatning umumiy farovonligi ta'minlanadi.

Demak, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash nafaqat hozirgi kunning dolzarb vazifasi, balki mamlakatning ertangi kuni uchun asosiy strategik yo'nalishdir.

Sardor TOLLIBOYEV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

tumanda shahar tipidagi rivojlanish boshlanganini ko'rsatadi.

Bunday geokosmik tahlillar Vyetnam, Indoneziya, Gruziya va Ozarbayjon kabi mamlakatlarda ham keng qo'llanilmoqda. Ular orqali hududiy investitsiya siyosatini shakllantirish, infratuzilmaviy ehtiyojlarni aniqlash va resurslarni samarali taqsimlash imkoni paydo bo'lmoqda. O'zbekistonda esa so'nggi yillardagi islohotlar — tadbirkorlikni rag'batlantirish, hududiy infratuzilmalarni yaxshilash orqali iqtisodiy nomutanosibliklar bosqichma-bosqich kamayib bormoqda.

Sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari bu jarayonni obyektiv va tizimli ravishda kuzatishga xizmat qilmoqda. Bunday yondashuv davlat hududiy siyosati, infratuzilmaviy loyihalarni rejalashtirish va investitsiyalarni jalb qilishda samaradorlikni oshirishning muhim vositasiga aylanmoqda. Shu jihatdan qaranganda, tungi yorug'lik ma'lumotlarini tahlil qilish nafaqat iqtisodiy baholashning noan'anaviy usuli, balki barqaror va muvozanatli o'sishni ta'minlovchi yangi strategik vosita sifatida yuksalayotgani shubhasiz.

Sardor Shuhrat o'g'li, jurnalist

2025-yil 15-avgust, 166-son

www.yuz.uz

Har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishi, fuqarolarning ertangi kunga ishonchi va davlatga hurmat-e'tibori, avvalo, ochiq, adolatli va shaffof iqtisodiy munosabatlار tizimiga tayanadi. Mazkur tizimda har bir shaxs va tadbirkor daromadlarini qonuniy tarzda oshkor qilishi, soliq majburiyatlarini vaqtida va to'liq ado etishi kerak bo'ladi. Davlat esa to'plangan mablag'lar hisobidan jamiyatning farovonligi uchun muhim infratuzilmalarni yaratadi, ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy xizmatlar va boshqa sohalarni moliyalashtiradi.

Biroq ushbu muvozanat buzilsa, ya'ni iqtisodiyotning muayyan qismi davlat nazoratidan tashqarida bo'lsa, yashirin iqtisodiyot yuzaga keladi. Yashirin iqtisodiyot jamiyatdagi ishonch inqirozining yaqqol ifodasidir. U qonun ustuvorligiga va davlatning adolatli boshqaruviga ishonch pasayishi natijasida shakllanadigan noqonuniy iqtisodiy faoliyat shaklidir. Agar jamiyatda odamlar qonunlarga amal qilish o'rni aylanib o'tishni ma'qul ko'rsa, bu holat nafaqat iqtisodiy, balki axloqiy va madaniy tanazzulning ham alomati sifatida namoyon bo'ladi.

Yashirin iqtisodiyot davlatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligiga jiddiy tahdid soladi. U nafaqat davlat budjetiga tushumlarni kamaytiradi, balki adolatli raqobat muhitini buzadi, tadbirkorlikni soyaga tortadi, korruptsiya va ma'muriy to'siqlarni kuchaytiradi.

Bugungi kunda dunyoda deyarli biror davlat yo'qki, yashirin iqtisodiyot muammosidan xoli bo'lsa. Hatto taraqqiy etgan mamlakatlar bu illarga qarshi qat'iy choralar ko'rmoqda. Shu jumladan, yurtimizda so'nggi yillarda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish, uning ildizlarini aniqlash va bartaraf etish bo'yicha tizimli ishlanyapti. Joriy yilning 12-avgust kuni davlatimiz rahbari ushbu yo'nalishdagi ishlar samaradorligini oshirish maqsadida yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash tizimini takomillashtirishga oddi takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Taqdimot davomida ushbu muammoni bartaraf etish bo'yicha bajarilayotgan ishlar, rejalar va ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

So'nggi yillarda yurtimizda biznes muhitini yaxshilash, ortiqcha ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish, tadbirkorlar faoliyatiga davlat aralashuvini qisqartirish borasida muhim qadamlar tashlandi. Ilgari biznes sohasidagi yuqori darajadagi nazorat va bosimlar sabab ko'plab tadbirkorlar faoliyatini oshkora yuritishdan qo'rqardi. Bu esa yashirin iqtisodiyotni kengayishiga, norasmiy pul aylanmasi o'sishiga olib kelardi.

Biroq so'nggi yillarda soliq tizimidagi islohotlar bu boradagi vaziyatni o'zgartirdi. Masalan, soliq turlari soni 13 tadan 9 taga kamaytirildi, 100 dan ortiq turdagi litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi. Shuningdek, soliq yuki kamaytirilib, tadbirkorlar uchun qulay va shaffof sharoitlar yaratildi. Natijada 2019-yilda 45-50 foizni tashkil etgan kuzatilmayotgan iqtisodiyot ulushi 35 foizgacha qisqardi.

Albatta, bu ko'rsatkichni yetarli deb bo'lmaydi. Bu sohadaagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jamiyatda soliq to'lash madaniyatini shakllantirish, fuqarolar va tadbirkorlarning davlatga ishonchini mustahkamlash orqali yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashni kuchaytirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Hisobsiz foyda, javobsiz zarar

Rasmiy iqtisodiyot davlat nazoratida bo'lib, unda iqtisodiy faoliyat rasmiy ro'yxatga olinadi, soliqlar to'lanadi va tegishli statistika organlariga ma'lumotlar taqdim etiladi. Bunday iqtisodiyot davlatning soliq bazasini ta'minlaydi, ijtimoiy siyosat yuritilishiga asos yaratadi va iqtisodiy o'sishning barqaror manbaiga aylanadi.

Norasmiy iqtisodiyot esa, aksincha, davlat nazorati va rasmiy statistikadan chetda qolgan iqtisodiy faoliyatlarni o'z ichiga oladi. U ko'p hollarda soliq to'lashdan qochish, qonuniy talablarni chetlab o'tish yoki ortiqcha ma'muriy nazoratdan qutulish maqsadida yashirin bo'ladi. Bu esa mamlakat iqtisodiyoti uchun jiddiy xatarlar keltirib chiqaradi.

Norasmiy iqtisodiyot turli ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, nazoratsiz

iqtisodiyotda faoliyat odatda kichik ko'lamdagi xizmat ko'rsatish, savdo va vaqtincha mehnat bilan bog'liq bo'ladi. Uyma-uy yurib mahsulot sotuvchi yoki ro'yxatda turmagan kosiblar faoliyati shular jumlasidan. Bu faoliyat turi aholiga muayyan darajada foyda keltirishi mumkin bo'lsa-da, u ham soliq bazasini kamaytiradi va huquqiy tartibga solinmagan bo'ladi.

Yashirin iqtisodiyotda esa tadbirkorlar va iqtisodiy subyektlar faoliyatining muayyan qismini qasddan yashiradi. Soliqlarni to'lamaslik, xodimlarni rasmiy ro'yxatga olmaslik, foydani kamaytirib ko'rsatish kabi holatlar budjet tushumlarini kamaytiradi. Bu esa adolatli raqobat muhitiga putur yetkazadi, iqtisodiy tengsizlikni keltirib chiqaradi.

Kriminal iqtisodiyot eng xavfli ko'rinish bo'lib, u noqonuniy faoliyat — odam savdosi, giyohvandlik moddalari aylanmasi, qimorbozlik, qora bozordagi savdolar va boshqa jinoiy daromad manbalarini o'z ichiga oladi. Bu faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy xavf-xatarlarni ham kuchaytiradi.

Dunyo tajribasi ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda yashirin iqtisodiyotning ulushi nisbatan past — taxminan 10-12 foiz atrofida. Bu, avvalo, ulardagi soliq tizimi samaradorligi, fuqarolardagi yuksak soliq madaniyati, shaffof boshqaruv va korruptsiyaga qarshi qat'iy siyosat samarasidir.

“

Soliq turlari soni 13 tadan 9 taga kamaytirildi, 100 dan ortiq turdagi litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi. Shuningdek, soliq yuki kamaytirilib, tadbirkorlar uchun qulay va shaffof sharoitlar yaratildi. Natijada 2019-yilda 45-50 foizni tashkil etgan kuzatilmayotgan iqtisodiyot ulushi 35 foizgacha qisqardi.

Aksincha, zaif rivojlanayotgan ayrim mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot ulushi 60-70 foizgacha yetishi mumkin. Bu esa davlat iqtisodiyotining katta qismi davlat nazoratidan chetda ekanini anglatadi. Bunday holatda korruptsiya, ma'muriy to'siqlar, soliq tizimi samarasizligi va huquqiy mexanizmlar zaifligi asosiy omillar sifatida qayd etiladi.

Yashirin iqtisodiyot shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri soliq yukidir. Soliq stavkasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda agar tizim adolatli bo'lmasa, tadbirkorlar qonuniy yo'l bilan ishlashdan ko'ra norasmiy yo'lni tanlashga moyil bo'ladi. Shu bilan birga, faqat soliqlar miqdori balandligi emas, balki soliq siyosatining adolati, barqaror va tushunarli bo'lishi ham katta ahamiyatga ega.

Adolatli va shaffof soliq tizimida hatto soliq yuki nisbatan yuqori bo'lgan taqdirda ham fuqarolar unga ishonib, o'z majburiyatlarini bajaradi. Aks holda, tizimdagi bo'shliqlar va nazoratsizlik soliqdan qochish holatlarini kuchaytiradi, bu yashirin iqtisodiyot kengayishiga olib keladi.

Soliq madaniyati — iqtisodiy barqarorlik poydevori

Rivojlangan davlatlarda aholi topgan daromadning katta qismi soliq tariqasida davlat budjetiga tushadi. Shunga qaramay, bu mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot ulushi juda past darajada saqlanib qolmoqda. Shu bilan dalolat beradiki, soliq yukining og'ir yoki yengilligi yashirin iqtisodiyot kengayishiga bevosita ta'sir qilmaydi. Soliqdan qochish imkoniyatlari cheklangan va davlat

bilan jamiyat o'rtasida ishonch mustahkam bo'lgan joyda soliq to'lash madaniyati yuksak bo'ladi. Ta'dqiqotlar ko'rsatmoqdaki, yashirin iqtisodiyotning taxminan 30 foizi soliq tizimidagi kamchiliklar tufayli kelib chiqsa, qolgan katta qismi aynan soliq madaniyati yetishmasligi bilan bog'liq.

SOLIQLARNI TO'LASH

VIJDON ISHIGA AYLAN SIN

YOXUD YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI BIRGALIKDA KURASHISH KERAK

bilan jamiyat o'rtasida ishonch mustahkam bo'lgan joyda soliq to'lash madaniyati yuksak bo'ladi. Ta'dqiqotlar ko'rsatmoqdaki, yashirin iqtisodiyotning taxminan 30 foizi soliq tizimidagi kamchiliklar tufayli kelib chiqsa, qolgan katta qismi aynan soliq madaniyati yetishmasligi bilan bog'liq.

Soliq undirish madaniyati

Soliq madaniyatining ikkinchi jihat soliq undirish madaniyatidir. Bu faqat texnik jarayon emas, balki fuqaro va davlat o'rtasidagi ishonch ifodasi. Afsuski, ko'pchilik fuqarolar va tadbirkorlar to'layotgan soliqlarning qayerga sarflanishini bilmaydi va bee'tiborlik yoki hatto soliqdan qochishga urinish kabilarga olib keladi.

Har bir soliq to'lovchi to'layotgan mablag' jamiyatning qaysi sohalariga yo'naltirilayotganini bilishi kerak. Davlat budjeti shaffof bo'lsa, soliq tushumlari ta'lim, tibbiyot, yo'lsozlik, ijtimoiy muhofaza kabi xizmatlarga sarflanayotgani haqida aniq ma'lumot berib borilsa, fuqarolarda davlatga ishonch ortsa, soliq to'lash istagi ham kuchayadi.

Soliq to'lash madaniyati

Soliq madaniyatining uchinchi, eng muhim yo'nalishi soliq to'lash madaniyatidir. Ko'pchilikda "men soliq to'lasam, nima o'zgaradi?" degan savol tug'iladi. Lekin haqiqat shuki, har qanday o'zgarish, avvalo, insonning o'zidan boshlanadi. Agar har bir fuqaro soliqni vaqtida va to'liq to'lasa, yashirin iqtisodiyot kamayadi, davlat budjetiga tushum oshadi. Natijada ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy xizmatlar, infratuzilma rivojlanadi va bu barcha uchun foydalidir.



Unutmash kerakki, soliq to'lash faqat majburiyat emas, balki madaniyat masalasi hamdir. Madaniyat esa tarbiyadan boshlanadi.

Bolaligidan soliq to'lashning ahamiyatini tushumib ulg'aygan avlod kelajakda uni yashirmaydi, aksincha, o'z burchi deb bilib bajaradi. Shu bois, maktab va oliy ta'lim

muassasalarida soliq to'lash masalasini keng yoritish, yoshlar bilan ochiq muloqotlar o'tkazish, soliqlarni faqat raqam emas, balki mamlakat rivojiga qo'shiladigan hissa sifatida anglatish zarur.

Raqobatga putur yetkazuvchi faoliyat

Yashirin iqtisodiyot faqat iqtisodiy muammo emas, balki ijtimoiy adolat buzilishiga olib keladigan jiddiy xavfidir. Bu holat jamiyatdagi ishonch muhitiga, raqobat tengligiga va davlatning fuqarolar oldidagi mas'uliyatiga putur yetkazadi. Agar fuqarolar va tadbirkorlar o'z daromadini yashirishga, soliq to'lashdan qochishga harakat qilsa, bunda birinchi bo'lib jamiyatdagi tengsizlik va adolatsizlik kuchayadi.

Misol uchun, bir necha yil avval bank kartalaridan naqd pul yechish uchun katta foizlarda norasmiy komissiya bo'lardi. Bu holat ko'pchilikni naqd pul muomalasini afzal ko'rishga majbur qilgan, natijada, ayniqsa, savdo va xizmat ko'rsatish sohasida yashirin iqtisodiyot darajasi keskin oshgan edi. Keyingi yillarda elektron to'lovlar tizimi jadal rivojlandi va bu muammo muayyan darajada bartaraf etildi. Ammo muammoning



asosiy ildizlari hali ham dolzarbligini yo'qotmagan.

Ijtimoiy adolat buzilishiga yana bir yaqqol misol tadbirkorlar o'rtasidagi soliq yukining noteng taqsimlanishidir. Masalan, har qanday tovar yoki xizmatning narxi muayyan soliq

ILK MARTA KOSMOS ORQALI GEOIQTISODIY FAOLLIK BAHOLANDI

Xushxabar


Odatda shahar, tuman yoki qishloqlarda o'rnatilgan chiroqlar odamlarning tungi harakati, xavfsizligi va qulayligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Ammo so'nggi yillarda raqamli texnologiyalar taraqqiyoti tufayli bunday oddiy ko'rinadigan yorug'lik manbalari butunlay yangi maqsadda foydalanilmoqda. Ya'ni ular orqali shahar va hududlarning iqtisodiy faolligi baholanmoqda. Sun'iy yo'ldoshlar tomonidan qayd etiladigan tungi yorug'lik ma'lumotlari dunyo bo'ylab geoiqtisodiy tahlillarning muhim qismiga aylandi.

Bugungi kunda ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy o'sish sur'atlarini monitoring qilish, hududlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni aniqlash va bartaraf etish, infratuzilmalarni rejalashtirish hamda hududiy rivojlanishni strategik boshqarishda ushbu ilg'or

metodologiya imkoniyatlaridan foydalanmoqda. O'zbekistonda ham bu sohada muhim qadam qo'yildi. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ilk bor NASAning tungi yorug'lik (NTL) ma'lumotlaridan foydalangan holda yurtimizning shahar va viloyatlari bo'yicha iqtisodiy faollikni chuqur tahlil qildi. Ushbu tahlil sun'iy intellekt texnologiyalari asosida amalga oshirilib, hududiy rivojlanish holatini yangi, mustaqil va tezkor usulda baholash imkonini berdi.

Olingan natijalar sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari va rasmiy statistika o'rtasidagi yuqori darajadagi moslikni namoyon etdi. Xususan, NTL ma'lumotlariga ko'ra, 2020-2024-yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM 63,5 foiz o'sib, 2011 dollardan 3287 dollarga yetgan. Bu ko'rsatkich rasmiy manbalarda qayd etilgan 59,4 foizli o'sish bilan deyarli to'g'ri keladi.

Eng katta o'sish Toshkent shahrida kuzatildi — so'nggi besh yilda poytaxtda jon boshiga



to'g'ri keladigan YAIM 3,2 ming dollarga oshib, 7,2 ming dollarga yetgan. Poytaxtimizning Mirobod, Yakkasaryoy va Yunusobod kabi markaziy tumanlarida ushbu ko'rsatkich 9 ming dollardan oshgan, bu mamlakat bo'yicha

o'ttacha darajadan qariyb ikki barobar yuqori demakdir.

2024-yilda yuqori iqtisodiy faollik qayd etilgan shaharlar qatoriga Navoiy (8,3 ming dollar), Zarafshon (6,8 ming dollar), Samarqand



TIBBIYOTDAGI YANGI TASHABBUSLAR

NAVOIY VILOYATIDA HAM NAMOYON

Navoiylik Siroj Ro‘ziyev uzoq yillardan buyon suyak-son va bo‘g‘im kasalliklariga qarshi kurashib keladi. Dori-darmon xarajati, qolaversa, goh poytaxt, goh Samarqand shahridagi shifoxonalarga muntazam qatnash mashaqqati uni ancha horitgan. Bir Siroj emas, viloyatdagi ancha-muncha odam travmatologiya va ortopediya bo‘yicha sifati muolaja olish uchun yurtimizning turli hududiga borishga majbur edi.

Yaqinda Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Navoiy viloyati filiali ochilgani bu kabi sarsongarchiliklarga chek qo‘ydi.

— O‘n uch yoshimda suyak kasalligiga chalinganman, — deydi Siroj Ro‘ziyev. — Suyaklarim mo‘rtligi uchun 4 yilda oyog‘im 8-marta singan. Juda ko‘p hududlardagi shifoxonalarga qatnadim. Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi viloyat filiali ochilishi biz kabi bemorlarga ancha qulaylik bo‘ldi. Poytaxtdan ham professorlar va mutaxassislar keldi. Oyog‘imda jarrohlik amaliyoti o‘tkazildi. Hozir sog‘lig‘im yaxshi tomonga o‘zgara boshladi.

Tibbiyot sohasidagi yutuqlardan keng foydalanish aholi salomatligini muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, travmatologiya va ortopediya yo‘nalishida ko‘rsatilayotgan xizmatlar insonlarning hayoti va mehnat qobiliyatini saqlab qolishda katta o‘rin tutadi.

Filial ochilishida Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi yetakchi mutaxassislari va soha bo‘yicha professorlar ham ishtirok etib, bemorlarga zarur tavsiyalar berdi. Shuningdek, mahalliy mutaxassislar bilan hamkorlikda murakkab jarrohlik amaliyotlari o‘tkazildi.

— Travmatologik va ortopedik kasalliklarni davolash bo‘yicha Navoiy viloyatida ham qator ishlar qilingan edi. Biroq ayrim jarayonlar chiqur tahlil va aniqlik talab etadi. Buning uchun yuqori texnologik, zamonaviy tibbiy uskunalar zarur. Ushbu filial mazkur talablarga javob beradigan zarur tibbiy uskunalar bilan ta‘minlandi, moddiy-texnik bazasi tubdan yangilandi, — deydi tibbiyot fanlari doktori, professor Iskandar Xo‘janov. — Qolaversa, viloyatda ushbu yo‘nalishdagi shifoxonalar tarqoq edi. Endi ular filialda birlashtirildi. Ayni vaqtda bu yerda raqamlashtirish bo‘yicha ham muayyan ishlar qilinmoqda. Shuningdek, markazdagi mutaxassislar bilan onlayn maslahatlashuv, ya‘ni telemeditsina yo‘lga qo‘yilib, har hafta amalga oshirilmoqda. Bu ishlar tez orada ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Filial ochilishi viloyat tibbiyotidagi katta yutuqlardan

biri bo‘ldi. U 60 o‘ringa ega bo‘lib, aholi uchun vaqt va mablag‘ tejash imkonini beradi. Muhimi, tegishli yo‘nalishlarda yanada tezkor va samarali davolanish uchun zarur sharoit yaratildi.

Yangi O‘zbekiston tibbiyoti innovatsion, yuqori texnologik, xalqaro standartlarga javob beradigan tizimga aylanmoqda. Soha mutlaqo yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgani, ilg‘or davolash va diagnostika usullari, innovatsion texnologiyalar keng tatbiq etilayotgani natijasida malakali tibbiy xizmat eng olis va chekka hududlarda yashovchi aholi xonadonlarigacha kirib boryapti.

— Tibbiyot sohasidagi o‘zgarishlar o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q, — deydi Navoiy viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i Nurali Safoyev. — Bu jarayonda davlatimiz rahbarining qator farmon va qarorlari, sohaga oid huquqiy hujjatlar dasturlamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Viloyatimizda o‘tgan ikki yilda 27 ta oilaviy shifokor punkti, 2 ta oilaviy poliklinika hamda 116 ta mahalla tibbiyot punkti faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Natijada 300 mingdan ziyod kishiga tibbiy xizmat yaqinlashtirildi. Ushbu muassasalarda 2298 shifokor, 13 ming 655 o‘rta tibbiyot xodimi va zaruriy yo‘nalishlarda 7311 xodim faoliyat yuritadi. Ularning

8 nafari fan doktori, 572 nafari oliy, 322 nafari birinchi va 286 nafari ikkinchi toifali shifokorlardir. Shuningdek, viloyatdagi Navbahor, Xatirchi tumanlari va Zarafshon shahrida tumanlararo 3 ta perinatal markaz to‘liq ta‘mirlandi. Bundan tashqari, Qiziltepa va Xatirchi tumanlarida o‘tkir yurak-qon tomir va qo‘shma shikastlanish markazlari ishga tushirildi.

Respublika miqyosida bajariladigan yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari viloyat, tuman darajasiga tushirilgani natijasida bugun

viloyat muassasalarida o‘tkazildi. 2025-yilda ushbu ko‘rsatkichni 98 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Endokrin kasalliklarni erta bosqichda aniqlash va oldini olish hamda asoratlarini kamaytirish juda muhim. Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Navoiy filiali ayni shu yo‘nalishda faoliyat yuritadi. Bu yerdagi zamonaviy tibbiy uskunalar qalqonsimon bez kasalliklari, qandli diabet va uning asoratlari, qolaversa, xastaliklarni erta

olishda muhim deya ta‘kidlaydi. Ayniqsa, onkologik xastaliklarni barvaqt aniqlashda ham bu kabi tibbiy ko‘riklar juda zarur. Buning uchun viloyatda skining tekshiruvlari yo‘lga qo‘yilgan. Agar bu turdagi kasalliklar aniqlansa, muolaja uchun kimyo terapiyasi, nur terapiyasi, immuniter terapiyasi kabi bir qancha usullardan foydalanilmoqda.

Keyingi yillarda bu yo‘nalish butunlay transformatsiya qilindi. Sohaning moddiy-



viloyatda 160 ta shunday turdagi operatsiya o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yildi. Oxirgi sakkiz yildagi islohotlar tufayli respublika ixtisoslashtirilgan markazlarida amalga oshirilayotgan davolash va diagnostika amaliyotining o‘rtacha 90 foizi

aniqlash va o‘z vaqtida davolash imkonini beradi.

Ushbu filialda xorijning yetakchi klinikalari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi natijasida joriy yilning o‘zida yuzlab jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Asosiysi, amaliyotdan chiqqan bemorlarning ahvoli ancha yaxshi va shifokorlar nazoratida zarur muolajalarni olmoqda.

— Ushbu yo‘nalishda jarrohlik amaliyoti avvallari poytaxtda yoki xorijda o‘tkazilar edi, — deydi endokrinolog jarroh Istam Dushanov. — Hozir bu kabi murakkab jarayonlarning 90-95 foizi filialimizda o‘tkazilmoqda. Shuningdek, amaliyotning 30-40 foizi shahar va tumanlardagi tibbiyot muassasalarida bajarilmoqda. Buning uchun filialimiz va hududlardagi muassasalar ham zarur tibbiyot uskunalari bilan ta‘minlangan. Joriy yilda filialimizga tahlil va tashxis uchun yangi va zamonaviy apparatlar olib kelindi. Bu viloyatimiz tibbiyotida ham katta yangilik bo‘ldi deb baholash mumkin. Natijada xastalikni erta aniqlash, oldini olish va barvaqt muolaja qilish imkoni yaratildi.

Shifokorlar inson xasta bo‘lmasdan avval, hech bo‘lmasa, bir yilda bir marta tibbiy ko‘riktan o‘tishi ko‘p kasalliklarning oldini

texnik bazasi yangilanib, kadrlar salohiyati oshirilmogda. Ayrim hollarda bemorlar “Onkologik kasalliklarni faqat xorijdagina davolash mumkin”, deya noto‘g‘ri o‘ylaydi. Oqibatda ko‘pgina ovoragarchiliklardan so‘ng xastalikning 3-4-bosqichida mahalliy mutaxassislarga murojaat qilishadi. Janubiy Koreya, Turkiya, Germaniya kabi davlatlarda malaka oshirib kelgan onkologlar aslida onkologik kasallikni davolash standarti hamma joyda bir xil ekanini ta‘kidlaydi. Bu muolaja usullaridan Navoiy viloyatida ham samarali foydalanilmoqda.

— O‘tgan yili bir guruh mutaxassisimiz xorijda malaka oshirib qaytdi, — deydi Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va tibbiy radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Navoiy viloyati markazi boshlig‘i Rustamjon Hamroyev. — Ushbu tajriba almashish jarayoni natijasida mutaxassislarimiz markazimizda yangi tekshiruv usullarini yo‘lga qo‘ydi. Shuningdek, aholi orasida kasallikni barvaqt aniqlash uchun viloyatimizda tizimli ishlar qilinmoqda. Shahar va tumanlardagi muassasalarda onkoskrining tekshiruvlari uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratilgan, zamonaviy tibbiy uskunalar bilan ta‘minlangan.

Shaxmat nafaqat o‘yin, balki hayot uchun katta tayyorgarlik. O‘rolbek har bir toshning imkoniyatini aql bilan baholab, keyin olg‘a suradi.

— Shaxmatni juda yaxshi ko‘raman. Maktabimizda professional shaxmat doskasi bo‘lardi. Kechgacha shaxmat o‘ynardik. O‘qituvchimiz yoki qorovul amaki uyga ketishimizni talab qilsa, tashqariga chiqmoqchidek bo‘lib, partalar ostida bekinib olardik. Yoshi kattalar xonada hech kim yo‘q deb o‘ylab, ustimizdan qullab ketgan paytlarga ham rozi bo‘lganmiz. Har bir g‘alaba ortida ko‘rinmaydigan jasorat bor. Mening yutuqlarimga asos — rivojlanmagan o‘g‘llarim o‘imini to‘ldirgan onarning mehri qo‘llari, qo‘ruqni yenga olganim, kelajakka ishonchim, — deydi O‘rolbek Normo‘minov.

Nabijon Norboyevning ta‘kidlashicha, mag‘lubiyatdan chiqariladigan xulosalar g‘alabani vazminlik bilan qabul qilishni o‘rgatadi.

— O‘rolbekning diqqatimni tortgan yana bir jihati — tez fikrlashi va pozitsiyadagi sabr-bardoshi, — deydi murabbiy. — U har bir harakatni aniq hisoblab, xatoga yo‘l qo‘ymaslikka intiladi. Har bir partiyaga jiddiy tayyorgarlik bilan kirishadi. Bu — haqiqiy chempionga xos xislat.

Odada jismoniy imkoniyati cheklanganlarga xalqaro musobaqada qatnashish oson bo‘lmaydi. Har bir partiya katta bir sinov degani. Hindistondagi o‘yinda har daqiqada yangicha fikr kerak bo‘ldi. Ammo g‘alabaga ishonch bor edi. Chunki hamyurtimizning maqsadi faqat chempionlik emas, balki O‘zbekiston nomini yana bir bor dunyoga tanitish, ulug‘lash edi! Bu yumushni yosh shaxmatchi a‘lo darajada uddaladi.

— O‘rolbek nafaqat g‘alaba qozondi, balki imkoniyati cheklangan bo‘lsa-da, katta yutuqlarga erishish mumkinligini isbotlab, yuraklardan joy oldi. Unga qarab, maqsadiga yetgan bola qanday bo‘lishini ko‘ramiz. Uning shijoati va kelajakka ishonchi insonni ilhomlantiradi. Taqdir taqozosi bilan jismoniy imkoniyati cheklangan bo‘lsa-da, qobiliyati va aql-zakovati cheklangan. U maqsadi aniq, intiluvchan yoshlardan, — deydi Surxondaryo

Onkologik kasalliklar hech qanday simptomlarsiz, birorta belgilariz vujudga kelishi, oqibatda ularni aniqlash imkoni judayam qiyinlashishi barchani sargalkikka chorlashi zarur. Kasallik qancha kech aniqlansa, davolash imkoniyati ham ancha pasayadi. Onkologik kasalliklarga qancha tez tashxis qo‘yilib, erta aniqlansa, ularga qarshi kurashish shuncha osonlashadi. Shu bois, viloyatda aholi o‘rtasida tibbiy ko‘riklar muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

Yosh avlodning sog‘lom va har tomonlama barkamol bo‘lib shakllanishini ta‘minlash har bir davlat va jamiyat oldida turgan asosiy vazifalardan. Navoiy viloyatida ham bolalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, ular orasida nogironlik ko‘rsatkichini keskin kamaytirish, ilg‘or muolaja turlarini joriy etish, shifokorlarning kasbiy mahorati va malakasini oshirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

— Markazimizda maslahat-diaagnostika poliklinikasi hamda davolovchi va yordamchi bo‘limlar mavjud, — deydi Navoiy viloyati bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi bosh shifokori o‘rinbosari Asqar Aslonov. — Muassasamiz qo‘shni viloyatlarga ham 24 yo‘nalishda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatib kelmogda. Hozir turli og‘ir xastaliklarga chalingan jaji bemorlarda ko‘plab turdagi murakkab jarrohlik amaliyoti shu yerning o‘zida bajarilyapti. Poytaxtdagi va xorijlik mutaxassislar bilan tajriba almashish uchun hamkorlikni yo‘lga qo‘ygannmiz. Bir guruh mutaxassisimiz xorijda malaka oshirib qaytdi. Bu esa, o‘z navbatida, bolajonlarga ko‘rsatilayotgan yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko‘lami va sifatini oshirmogda.

Bugun sohani zamon talablariga mos rivojlantirish, aholiga sifati tibbiy xizmat ko‘rsatish va xalqni rozi qilishni davmning o‘zi taqozo etmogda. Buning uchun esa malakali mutaxassislarni tayyorlash zarur. Navoiy viloyatida ham tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Birgina 2024-yilning o‘zida mahalliy 305 mutaxassisning chet eldagi nufuzli klinika va universitetlarda uzoq muddatli malaka oshirishi ta‘minlandi.

“Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Navoiy viloyati filialida ham bu borada samarali ishlar qilindi. 2024-yilda 8000 dan ortiq hamshira qayta tayyorlanib, ularga malaka toifasi berildi.

— Ayni vaqtda filialimizda o‘rta tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish jarayonida nazariy bilimlar berish bilan birga amaliyotga jalb qilish uchun barcha imkoniyat yaratilgan, — deydi Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Navoiy viloyati filiali direktori o‘rinbosari Javlonbek Berdiqulov. — Filialimiz 600 o‘rinli bo‘lib, o‘quv jarayoni uchun barcha zarur tibbiyot uskunalari bilan jihozlangan. Shuningdek, hamshiralarni amaliyotda sinab ko‘rish uchun simulyatsion markazlar tashkil etilgan. Ushbu markazlar jahon standartlariga mos zamonaviy texnika va muvlayar bilan ta‘minlangan. Shuningdek, xorijiy davlatlar mutaxassislari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, filial o‘qituvchilari tomonidan zamonaviy o‘quv dasturlari ishlab chiqilgan.

Bugun 130 turdan ziyod jarrohlik amaliyotini viloyat shifoxonalarida, 60 turini esa shahar va tumanlardagi tibbiyot muassasalarida o‘tkazish yo‘lga qo‘yilgani sohadagi keng ko‘lamli ishlarining amaliy ifodasidir. “Inson qadri uchun” tamoyiliga yo‘g‘rilgan islohot va tashabbuslardan ko‘zlangan maqsad ham shu, aslida.

G‘olib ABDUSALOMOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yangi O‘zbekiston yoshlari

O‘ROLBEK ORTGA QAYTMADI VA JAHON CHEMPIONI BO‘LDI

G‘alabaga ishonch bor edi. Chunki hamyurtimizning maqsadi faqat chempionlik emas, balki O‘zbekiston nomini yana bir bor dunyoga tanitish, ulug‘lash edi! Bu yumushni yosh shaxmatchi a‘lo darajada uddaladi.



erishayotgan yutuqlari, g‘alabalari yurtimizda shaxmat o‘yini rivojlanishning yuqori bosqichida ekanini tasdiqlaydi.

— Ota-onasi O‘rolbekni shaxmat to‘garagiga olib kelganida uyi uzoqdaligi, qatnash qiyinligi tufayli dastlab bola to‘garakka qabul qilinmagan. Keyin onasi uni yonimga yetaklab keldi. “Bir qobiliyatini tekshiring, kelajagiga ishonmasangiz, unda, mayli, ketamiz”, dedi. Iste‘dodli bolaning shaxmat donalarini uch marta surishini ko‘riboq jamoaga olgannmiz. Boshqalarga ham

aytmogchi bo‘lganim shuki, iste‘dodlimsiz, chekinmang, — deydi Surxondaryo viloyati shaxmat federatsiyasi ijrochi direktori Nabijon Norboyev. — Mamlakatimizda shaxmatni aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish va ommaviy sport turiga aylantirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual va madaniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish, yuqori iqtidorga ega yoshlarni saralash hamda professional shaxmatchi va xalqaro grossmeysterlar qilib tayyorlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.



Hindistonning Goa shahrida 24-jahon individual shaxmat chempionati bo‘lib o‘tdi. Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxmatchilar o‘rtasidagi bellashuvda yosh sportchilarimiz yurtimiz sharafini munosib himoya qildi. Xalqaro shaxmat federatsiyasi va Hindiston paralimpiya qo‘mitasi hamkorligida tashkil etilgan nufuzli chempionatda 16 davlatdan 89 tajribali sportchi ishtirok etdi.

Aql bahsidagi eng yorqin g‘alabalardan biriga hamyurtimiz — Surxondaryo viloyati Muzrabot tumanidagi 2-maktab o‘quvchisi O‘rolbek Normo‘minov erishdi. Yosh sportchi barcha raqibini mag‘lub etib, oltin medalni qo‘lga kiritdi. O‘rolbek rapid yo‘nalishi bo‘yicha jahon chempioni sifatida qayd etildi.

— O‘g‘lim kamolga yetib, chempion bo‘lib qaytguncha ko‘z yoshimni unga ko‘rsatmaganman. Shu kunlarda esa bo‘g‘zimda tiqilgan yig‘ini hech to‘xtatolmayman. Farzandimning bu yutug‘i ko‘nglimdagi bor g‘uborimni, dardimni yuvdi. Muzrabotdek chekka tumandagi maktabda o‘qiydigan bir o‘quvchining davlat e‘tiboriga tushishi, O‘zbekiston terma jamoasiga qabul qilinishi, g‘olib bo‘lishi, vohaga tanilishini kim ham xayoliga keltiribdi, — deydi chempionning onasi Fazilat Qo‘ng‘irotova. — Zahmatni, minnatni, ta‘nani to‘rt munchasi sog‘ bo‘lmagan farzand o‘stirgan onalar yaxshi biladi. Baxtimizga insonparvar davlatimiz bor, ming shukr. Shu bois, bolalarim hech kimdan kam bo‘lmay voyaga yetaypti.

Ayrim manbalarda shaxmat vatani sifatida Hindiston ko‘rsatiladi. Vaholanki, yurtimiz zaminida topilib, Termiz arxeologiya muzeyiga qo‘yilgan shaxmat donalari 3 ming yilga oldi deb ko‘rsatilgan. Qolaversa, vatanimiz hududidagi arxeologik qazishmalar xulosasi ham shaxmat o‘yining qadimdan aholi keng qatлами orasida mashhur bo‘lganini isbotlaydi. Bugungi yoshlarimizning qator xalqaro musobaqalarda

viloyati nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish markazi rahbari Nigina Murodova.

Mamlakatimizda shaxmatni ommaviy sport turiga aylantirish, intellektual va madaniy rivojlanish uchun barcha shart-sharoit yaratilyapti. Xususan, Prezidentimizning “Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-dasturlari to‘g‘risida” qaroriga ko‘ra, “Maktabda shaxmat” loyihasini amalga oshirish, boshlang‘ich sinflarda shaxmat o‘qitish tizimini kengaytirish, turnirlar tashkil etish, shaxmatga qiziqishni oshirish va imkoniyati cheklangan shaxmatchilarni ko‘llab-quvvatlash kabi muhim vazifalar belgilangan.

Yoshlarning har tomonlama bilimli, yetuk salohiyatli bo‘lishida malakali ustoz-murabbiylarning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Shu bois, yurtimizda o‘qituvchilarning bilimi va malakasini oshirish doimiy e‘tibordir. Ular uchun zarur shart-sharoitlar hozirlanib, ko‘plab yengillik va imtiyozlar berilmoqda. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi ma‘lumotiga ko‘ra, viloyatdagi umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida bugun 50 mingdan ziyod o‘qituvchi faoliyat yuritmoqda. Ularning 42 mingi oliy ma‘lumoti, 8,2 mingi o‘rta maxsus ma‘lumoti. 2021-yilga nisbatan vohada muallimlar soni 6,6 ming kishiga oshgan. Surxondaryoda maktablar soni ham yil sayin ko‘payib bormogda. Zamonaviy sharoitlarga ega ta‘lim muassasalari qad ko‘taryapti. O‘tgan 4-yilda 61 ta yangi maktab qurilib, foydalanishga topshirildi. Viloyatdagi umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari soni 995 taga yetdi. Shu kunlarda barcha maktabda yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik jadral sur‘atda davom etmogda. Maktablarni zaruriy ta‘mirlash va obodonlashtirish ishlari bajarilib, sinfonxalar yangi o‘quv yiliga moslab jihozlanmogda. Zotan, bunday shart-sharoit mamlakat dong‘ini dunyoga tanitadigan ilm-ma‘rifati avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sarvar TO‘RAYEV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Sayyora TO‘YCHIYEVA,
Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, professor

Ona Vatan, ona el, ona tuproq deymiz. Dilimizga xush yoqadigan, tilimizga bol beradigan bu shirin so‘zlar uyimiz tinch, oilamiz farovon, mahallamiz osoyishta, ovul-u kentimiz xotirjam bo‘lsagina tatydi, ko‘nglimizga yoqadi.

Dunyoning qay burchagida qorni nonga to‘ymayotgan, to‘yib suv icholmayotgan bolalar qancha! Jigargo‘shalarini qirg‘inbarotdan himoya qilolmay yashayotgan ota-onalar qancha! Faqat tinch, xotirjam yurtga, osoyishta elga bayram yarashadi, ko‘ngilga she‘r, qo‘shiq sig‘adi.

Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Yozuvchilar uyushmasi, Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi hamkorligida vodiy bo‘ylab Umummilliy birdamlik festivaliga start berildi.

Farg‘onada bayram shodiyonasi

Qo‘qon vokzali. Mehmonlarga istiqlol yillaridagi bunyodkorlik ishlari va elning fidoyi insonlari faxr bilan tanishtirildi. Mahallalar va oilalar obodligidan boshlanadigan barakayu fayz haqida so‘zlab berildi.

Safardoshimiz O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, tarix fanlari doktori, professor Abduxalil Mavrolonvning quyidagi so‘zlari qo‘gnliklar ko‘ngliga bayram tarovatini olib kirdi: “Hurlikning, ozodlikning ona yurt rivoji va taraqqiyotidagi o‘mi beqiyos. Zotan, yangi O‘zbekiston islohotlarining samaralari odamlar ongida, tafakkurida yangicha dunyoqarashni kashf etayotgan sir emas. Umummilliy birdamlik festivali istiqlol shukuhini, birdamlik va hamjihatlik fazilatlarini targ‘ib etmoqda. Ziyolilar birlashib, milliy ruhiyat va milliy qadriyatlarini ulug‘lar ekanimiz, yurtdoshlarimiz ko‘ngliga yangi O‘zbekiston islohotlariga kamarbastalik hissi oshaveradi, Vatanimiz qudratli, yuritimiz farovon bo‘ladi”.

Ha, xalqimiz “Tafakkur o‘zgarsa, jamiyat o‘zgaradi”, deb bekorga aytmagan. Jamiyatning keyingi sakkiz yilda ijtimoiy-siyosiy manzarasi o‘zgarib borayotganini yurtdoshlarimizning shukronasida ko‘rish mumkin.

Farg‘ona — ulug‘ olimlar, usta san‘atkorlar, tinchliq adiblar yurti. Ularning ijodiyoti O‘zbekiston ilm-fani, adabiyoti va san‘atida katta maktab vazifasini o‘tagan. Atqoli adabiyotshunos olim Aziz Qayumov Navoiy Hazratlari satrlaridagi samimiylik, nekinlik, shukronalik va donishmandlik fazilatlarini haqida gapirgan. Mashhur san‘atkorlar —



Nabi Rahimovning Zako ota obrazidagi teran talqinlari, Berta Davidovanning dilbar qo‘shiglari, Tamaraxonimning betakror raqslari, Yusufjon qiziq Shakarjonovning ichakuzdi hangomalari bor. Shuningdek, O‘zbekiston xalq shoirilari Erkin Vohidov, Anvar Obidjon, Enaxon Siddiqova, Iqbol Mirzo satrlaridagi farg‘onacha



bag‘rikenglik san‘at va adabiyot ahlining hayratini oshirgani bor gap.

Uchko‘prik tumanidagi 20-bolalar musiqa va san‘at maktabi hamda tuman madaniyat markazida uchrashuvlar bo‘lib o‘tdi. Ustozlardan Davlatmurod Sotvoldiyev, Abdumannon Isoqov, Umidjon Qozoqov, Anvarjon Sobirov, Umidjon Ziyodov, Ruxshona Jumaqo‘ziyevaning ijodiy yutuqlari haqidagi faxrlar so‘zlarni tingladik. “Tanovar” ashula va raqs ansambli, “Hangoma” xalq kulgi teatri san‘atkorlarining ijrolarini tomosha qildik.

“Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni sohibasi, “Oqila ayollar” harakati targ‘ibot guruhi a‘zosi Ra‘noxon Ergasheva mustaqillik yillarida oila va nikoh masalalari bo‘yicha qilayotgan tarbiyaviy ishlari haqida maroq bilan so‘zlaydi: “Mening uch farzandim, o‘n nabiram, olti chevaram bor. Turmush o‘rtog‘im bilan birga ularni oliy ma‘lumotli qildik. Nabiralarimdan biri o‘qituvchi, biri tadbirkor, biri shifokor, biri muhandis, qolgan beshovi talaba. Magistr nabira qizlarimning to‘lov-shartnoma pulini davlat to‘lab bermoqda. Hunarmand farzandlarim esa tayyorlagan mahsulotini xorijga sotmoqda. Bugungi ma‘rifiy tadbir ko‘nglimga bir zavq berdi. Qaysi yurtida yashayotganim, bolalarim yonimda ekan va har bir kunimda el-yurtga nafim tegayotgani men uchun, oddiy ayyol uchun katta baxtdir”.

Vodiyning benazir san‘atkorlari Ma‘murjon Uzoqov, Murodjon Ahmedov, Rahima Mazohidova, Jo‘raxon Sultonovning xonishi farg‘onaliklar tilidan tushmaydi.

Usta san‘atkor Tavakkal Qodirov asli Farg‘onadan. Qizi Karimaxon opa Quvaning Qaqir qishlog‘iga kelin bo‘lib tushgan. Turmush o‘rtog‘i Usmonjon aka bilan uch o‘g‘ilni o‘stirib, elga qo‘shdi, uch nevara, to‘rt chevarani katta qilmoqda.

Opaning xonadoniga kirarkanmiz, 100 yillik tuting soyasidagi anvoiy qushlar, tomorqadagi nok, olma, o‘rik, shaftolining shig‘il hosil

solgan novdalariga ko‘zimiz tushdi. G‘arq pishgan pomidor, bodring, qalampir singari rezavorlarning yam-yashil qatorlariga, har xil ko‘kat, rayhonu o‘sma, xinagacha qator terilgan ekinzorni ko‘rib havas qildik. O‘g‘illari va kelinlari bilan qator so‘ritoklardagi qizarib pishayotgan dona-dona uzumdan tortib,

tomorqadagi olcha-yu olxo‘ri, behi-yu xilma-xil uzum navlariga qiziqdik. Inson mehnati, g‘ayrati bir xonadonda ajoyib bog‘u guliston barpo etganiga ishingimiz kelmadi.

— Otam betakror san‘atkor Tavakkal Qodirov va onam Risolaxton biz, yetti farzandni mehnatga o‘rgatgan. Sigiru buzoqni, qo‘y-qo‘zini, bog‘u ishkomni, tomorqani gullatib mehnat qilishga bolaligidan o‘rganganman. Oilada besh o‘g‘il, ikki qizimiz. Otamiz mashhur hofiz Komiljon Otaniyozovning shogirdi edi. Ustozi Farg‘onaga kelsa, hamisha boshiga ko‘targudek e‘zozlar, shogirdlariga esa har bir qo‘shiqning matni-yu saviyasiga e‘tibor berishni o‘rgatardi. Hovlida ozodlik, dasturxonda mazali taom bo‘lishi, eshik doim ochiq turishi biz uchun tarbiya maktabi vazifasini o‘tagan. Qizig‘i shundaki, otam maktabda olgan baholarimizni alohida tekshirar, o‘qigan kitobarimizni birma-bir surishtirar edi. Maktabga nimaiki yordam berish lozim bo‘lsa, so‘zsiz hal qilardi. Eng muhimi, “Odamlarga qanday munosabatda bo‘lsang, o‘shanday munosabat qaytadi. Nimaiki yaxshi-yomon tabdiring bolangdan qaytadi, bolangning tarbiyasiga ehtiyot bo‘lg‘in”, deb tayinlardi. Onam Risolaxton aya uchun otamning har bir gapi qonun edi. Biz ko‘rgan tarbiya bolalarimiz hayotida davom etayotgani shundan, — deydi Karimaxon opa. — O‘tgan asrning yetimishinchi yillari bir bola edik. Dalada mashinada ketayotsak, bir yuk ulovida qiz-



yigitlar paxta chopig‘iga ketayotgan ekan. Ular haydovchining yonida o‘tirgan dadamni tanib, baravariga olqishlab qarsak chaldi. Dadam yuk mashinasini oldinga o‘tkazib, biz o‘tirgan ulovni to‘xtatdi. “Qizim, torni ol”, dedi. Haydovchi doirani oldi. Dadam mashinaning ustiga chiqib “O‘xshaydi-ku” bilan “Dog‘man”ni kuyladi. Hamma sevinchdan yayrab, raqsga tushgandi. Yana bir kuni kelin olib, fотиha to‘yi o‘tkazgan qo‘shnimiz issiq qatlama olib kirdi. Dadam “Nahorda kirgan rizq boshqacha bo‘ladi, to‘y qachon?” deb so‘radi. Qo‘shnimiz “To‘y kuzda, qovun pishganda bo‘ladi. Ekkkan qovunimning daromadiga to‘y qilaman”, dedi. Dadam qo‘li kalta oila bu yil to‘y qilolmasligini sezib, bir yarim oyda bor xarajatini hal qilib, to‘yni o‘tkazib berdi. Onam Marg‘ilondan kelin sarpolarini tayyorlatib keldi. Bilasizmi, maqom, baxshichilik, hunarmandchilik festivallarida otamning qo‘shiqlari bag‘rasa, yayrab ketaman.

Farg‘onaning Yang‘dod, Buyayda, Uchko‘prik, Qo‘qon, Farg‘ona tumanlaridagi Umummilliy birdamlik festivali doirasidagi diydor uchrashuvlari Qo‘qonning “Yoshlar bog‘i”, Farg‘ona shahrining Eko city amfiteatri sahalaridagi gala konsertlarga ulanib ketdi. O‘zbekiston xalq artisti Gavhar Zokirova, O‘zbekiston xalq hofizi Ilhom Ibrohimov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Turg‘un Beknazarov, Qilichbek Tojiyev, tinchlik xonandalar Erkin Xudoyqulov, Bilol Is‘hoqov minglab farg‘onaliklarga bayram tabrigini izhor etdi.



Azmi ulug‘ Andijon

Hazrat Bobur yurtida boshlangan festival shukhi “Inson qadri”, “Baxtli bolalik sharafiga”, “Farovon hayotga ilk qadam”, “Kitob marafoni”, “Dildagi gaplar” loyihalari barobarida ijodkor-ziyolilarning xalq bilan diyorlashuviga aylandi.

“Shijoat” loyihasiga ko‘ra, tadbir Andijondagi harbiy qismlardan birida bo‘lib o‘tdi. Harbiy texnika ko‘rgazmasini tomosha qilayotgan,

qiladigan boladan yomonlik chiqmaydi. Bir akamning 5000, uch singlimning 4000 dan ortiq kitobi bor. Otam 30 mingga yaqin kitobini bizga bo‘lib bergan va bir gapni tayinlagan: “Kitob bor uйда baraka va ahillik bo‘ladi”.

Tumaning Zavroq mahallasidagi Mahfuzaxon Xalilova ko‘rpa-yosti, so‘zana-yu yosti, do‘ppi tikib, sakkiz bolani turmush o‘rtog‘i bilan voyaga yetkazdi. 17 nabirasining hammasiga hunar o‘rgatdi. Qizlariyu kelinlari bilan anvoiy gullar ko‘chatini ko‘paytirib, bog‘, gulzorlar barpo etdi. Bir parcha yerni ham bo‘sh qoldirmay, sabzavot ekdi, unганиni bolalarining og‘ziga tutdi. Azaldan aytilgan “Hunarli inson xor bo‘lmas” degan purna‘no hikmat mehnatkash onaning hayot yo‘li haqida aytilgandek qo‘yo.

— Paxtaobod tumanining Qirg‘iziston bilan chegaradosh Shomat mahallasi yo‘li asfalt bilan qoplandi. Endi nabiralirim maktabga loy va chang oralab emas, tekis va ravon yo‘ldan boradi, — deydi mahalla oqsoqoli Rahmatjon ota Mamatov.

Izboskan, Baliqchi, Shahrixon, Marhamat, Jalaquduq va Asakada o‘tgan uchrashuvlar haqiqiy bayramga, xalq sayillariga ulanib ketdi. Shaharning Alisher Navoiy istirohat bog‘ida o‘tgan gala konsertda o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, arman, uyg‘ur millati vakillarining qo‘shiqlari yangradi. Poytaxt san‘atkorlari bilan andijonlik san‘at ahli birgalikda qo‘shiqlar kuyladi.

Andijonliklar Muhammad Yusufdek otashnafas shoirini, Munajat Yo‘lchiyeva, O‘zbek Nazarbekovdek tanikli san‘atkorlarini faxrlanib tilga oladi.

— Yurtimizda yangi uslubdagi maktablar tizimi joriy etildi. Yunus Rajabiy nomidagi milliy maqom, Botir Zokirov nomidagi milliy estrada instituti faoliyat boshladi, — deydi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Gulbahor Erqulova. — Andijon ahlini va biz, san‘atkorlarni xursand qilgan yangilik — Prezidentimizning O‘zbekiston xalq artisti Sherali Jo‘rayev xotirasini abadiylashtirish va ijodiy maktab an‘analarini munosib davom ettirishga oid qarori o‘zbek san‘ati tarixida katta voqea bo‘ldi. Zotan, Andijon ixtisoslashtirilgan san‘at maktabi negizida Sherali Jo‘rayev nomidagi san‘at oliy maktabi tashkil etilishi, unda ustoz san‘atkorning ijodiy yo‘nalishi va faoliyati bo‘yicha ilmiy-ijodiy laboratoriya faoliyati yo‘lga qo‘yilishi noyob iste‘dod egasiga qo‘yilgan muazzam haykalga o‘xshaydi.

Niyatlari yorug‘ Namangan

Festivalning navbatdagi bekati Namanganning Chortoq, Kosonsoy, Norin, Uchqo‘rg‘on, Uychi, Yangiqo‘rg‘on, Pop, To‘raqo‘rg‘on, Davlatobod tumanlariga qo‘chdi. Ahli Namanganning Mashrabu Bobur g‘azallaridan, Kamoliddin Rahimov, Habiba Oxunova xonishlaridan aytganlari san‘atsevar, g‘azalxon xalqning yurak izhorlaridek yangradi.

Atqoli shoir Ziyovuddin Mansur “Bizni, namanganliklarni nafaqat tabiat, balki e‘tibor bilan qaralayotgan, parvarish topayotgan tabiat,

yurtidoshlarimizning peshona teri, qalb qo‘ri bilan yashnayotgan, tubdan o‘zgarayotgan borliq, tobora ko‘rkam tus olayotgan mamlakat ham tubdan o‘zgartirib yubordi. Atrof-muhit musaffoligini saqlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, jonajon diyorimizni, aziz O‘zbekistonimizni taraqqiy ettirish, eng muhimi, odamlarni rozi qilish borasida katta ishlar qilinayapti”, dedi.

Shoirming bu mushohadasi mustaqillikni o‘z taqdirida, hayot yo‘lida ko‘rgan ziyoli insonning qalb kechinmasidir.

Kosonsoy tumanining Navbahor mahallasida yashovchi, “Do‘stlik” ordeni sohibi Ahmadxon Eshonxo‘jayevning oilasi butun Namangan ahliga namuna. Otaxonning 11 nabirasi turli fan olimpidalari g‘olibi, qator xorijiy tillar bilimdoni. Muhimi, Ahmadxon akaning mutolaa va kitobxonlik borasidagi ma‘rifatli faoliyati kosonsoyliqlarning e‘tiboriga sazovor. Uning to‘y va boshqa marosimlari icham, kamchiqim o‘tkazish, ajralishlarning oldini olish borasidagi tavsiyalarini mahalladoshlari qo‘llab-quvvatladi. “Ahl elning fayzi, totuv oilaning dasturxonini havas qilarli bo‘ladi. Kelinini ‘qizim’, kuyovini ‘o‘g‘lim’ degan oila parokanda bo‘lmaydi. Mehr bilan shukrning qadri bilan odam elda qadrlı bo‘ladi, — deydi Ahmadxon ota. — Uning tinchligi mahallaga, mahallaning tinchligi tumanga fayz beradi. Tinch va osoyishta joyda baraka bo‘ladi, bolam. Hayot shunisi bilan qo‘zal”.

O‘zbekning shunday pir-u badavlat, ilmu hikmatli otaxonlari bor bo‘lsin!

G‘anijon Hojimatov va Nodirabegim Inoyatovani Chustda tanimagan odam yo‘q. To‘rt farzandini voyaga yetkazib, el yukiga kamarasta qilib tarbiyalagan bu ikki ziyoli davlatimizning qator ordeni medallariga sazovor bo‘lgan. Ular hayotning barcha sinovini boshdan kechirgani, hunari va ilmi bilan elda obro‘ topganini mahalladoshlari gapirib berdi. Nabiralari qator xorijiy oliygo‘hlarining besh-oltitasiga bir vaqtning o‘zida talabalikka qabul qilingani, ko‘plab xorijiy grantlarga egalik huquqini qo‘lga kiritgani har bir ota-onaning orzusidir. G‘anijon ota bilan Nodirabegim ayaning nurlı yuziga qarab, “Bolangizdan topgan baxtingizning rohatini ko‘ring, azizlarim”, degim keldi.

Hazrat Behbudiyning “Haq berilmas, olinur” degan otashin xitobi bor. Yurt mustaqilligi yo‘lida qator yillar mehnat qilgan, Namangan ahlining hurmatiga sazovor bo‘lgan Akmal aka Ikromov samimiy, bilimdon, mulohazasi teran, dunyoqarashi keng inson. U adabiyot, san‘at, tarix, falsafani keng mushohada bilan tushunadi. Mardligi, iltifoti, tarozining pallasini teng qo‘yadigan hayotiy xulosalari uncha-muncha olimni shoshirib qo‘yadi.

Sizlarning Davlatoboddagi “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida aytayotgan she‘ru qo‘shiqlaringiz namanganliklarga xushkayfiyat beradi, ishiga unum, ko‘ngliga zavq ota etadi. Yurtning istiqlol bayramiga nimasi yetsin! Uch farzandim el xizmatida. O‘g‘illarim tadbirkorlikni, qizim esa o‘qituvchilikni tanladi. Bir oila bo‘lib meva-sabzavotni saqlash, qayta ishlash, sarxil turlarini ko‘paytirish bilan shug‘ullanaymiz. Namanganning uzumi, noki, olmasi, shaftoli-yu behilari yetti iqlimga mashhur. Tinimsiz mehnat evaziga ularni ko‘paytirish, seleksiyalash, qo‘shni davlatlar dasturxoniga yetkazish borasida katta maqsadlarni mo‘ljallaymiz. Rossiyalik tadbirkorlar bilan qum-sement kabi qurilish materiallarini qayta ishlash, qirg‘izistonlik tadbirkorlar bilan darvozha, so‘rilar yasash, metall buyumlarini qayta ishlash, temir buyumlar o‘ymakorligi, milliy mebellar ishlab chiqarish, yosh hunarmandlarni kasbga tayyorlash borasida yangi ishlar boshladik, — deydi Akmal Ikromov. — “Mustaqillik bizga nima berdi?” degan savol bor. Mana shu savolga bunday javob bergim keldi. Ilgari oddiy sandiqqa solinadigan naqshning eskizini Moskvada 27 kishidan iborat badiiy kengashdan o‘tkazib, keyin yasardik va bozorga chiqarardik. U yerdagi 27 kishining birotasi O‘zbekistonni umrida ko‘rmagan, milliy naqshlarni, milliy mahsulotlarni qayerdan biladi? Vaqt va masofa ishimizni orqaga tortgandan tortgan edi. Hozir-chi? Hunarmandlarimiz yasagan mahsulotlar dunyo bozorini bezamoqda. Hamsubhatimning xulosasini tinglab, xayolimga bunday hikmatli satrlar keldi: kim haqida ko‘pchilik yaxshi gapirsa, u xalq sevgan insondir...

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlı chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-846.
34930 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Oqit usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etilidi.
Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy